

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI.

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI.

«MEHNAT IQTISODIYOTI. INSON TARAQQIYOTI» FANIDAN
AMALIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH UCHUN USLUBIY
KO'RSATMALAR

TOSHKENT –2014

Tuzuvchilar: Xashimova S.N., Tashxodjayeva M.D. Mehnat iqtisodiyoti.Inson taraqqiyoti fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy ko‘rsatmalar. - Toshkent,ToshDTU,2014, 68 b.

5230200-Menejment(sanoat tarmoqlarida) va 5230400-Marketing (sanoat tarmoqlarida) ta’lim yo‘nalishlari talabalarini fanning nazariy matyeriallarini chuqurroq o‘zlashtirishi uchun masalalar to‘plami byerilgan bo‘lib fan bo‘yicha muayyan bilimlarni egallashiga ko‘maklashadi.

Uslubiy ko‘rsatma mehnat iqtisodiyoti va inson taraqqiyoti masalalarini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Toshkent davlat texnika univyyersiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan nashrga tavsiya qilindi .

Taqrizchilar:

Xoshimov P.Z. – O‘zMU dotsent, i.f.n.

Jumanov E.T.-ToshDTU,”Menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Toshkent davlat texnika universiteti, 2014 ©

1.MEHNAT JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

Mehnatni tashkil qilishni (Mehnatning shaxsga oid elementlarini tashkil qilishni), ishlab chiqarishni tashkil qilishni (Mehnatning buyumlarga va shaxsga oid elementlarini birlashtirishni tashkil qilishni) va boshqarishni tashkil qilishni (boshqarishning ayrim funksiyalarini ajratish va tashkiliy tuzilmalarini shakllantirish yo‘li bilan boshqarish faoliyatini tashkil qilishni) anik o’bektga qarab farqlash qabul qilingan. Bunda mehnatni tashkil qilish ishlab chiqarishni tashkil qilishning bir qismi, ishlab chiqarishni tashkil qilish esa boshqarish funksiyasi sifatida qaraladi.

Tor ma’noda mehnatni tashkil qilish deganda jonli mehnatni tashkil qilish, ayni: mehnatni taqsimlash va koopyeratsiyalash, ish joylarini tashkil etish, mehnat usullarini, mehnat sharitlarini, mehnat va dam olish tartiblarini oqilonalashtirish, mehnatni me’yorlash, xodimlarni tayyorlash va malakalarini oshirish, moddiy rag‘batlantirish, mehnat intizomini mustaxkamlash kabi bir qator amaliy tadbirlar majmuasi tuShuniladi.

Iqtisodiyotni modyerinizatsialash sharoitida bozor munosabatlariga yo‘naltirish bilan birga inson bilan bog‘lik ko‘plab sotsial muammolarni xal etishga bo‘lgan yondashishlar tubdan o‘zartirilmakda.

1-masala

Agar detalni ishlab chiqarish bo‘yicha 5 ishlab chiqarish jarayonlarining davomiyligi 0,5; 1,5; 0,25; 0,75; 1,0 (min) bo‘lsa, hamda soatiga 480ta detal ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa ishlab chiqarish zanjiridagi ishchilar joylashuvini va ularning umumiy sonini aniqlang.

Yechish. Davomiyligi bo‘yicha eng minimal jarayonning mehnat sig‘imi aniqlanadi: $480 \cdot 0,25 = 120$ min. Ishlovchilarning zarur bo‘lgan soni 2ta (120:60). Qolgan jarayonlar uchun ishlovchilar soni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$CH_i = t_i / t_{min}$$

Bu yerda t -vaqt, CH - ishlovchilar soni.

Shunday qilib, birinchi jarayonda 4 kishi, (0,5/0,25·2), ikkinchisida-12ta (1,5/0,25·2), uchinchisida-2ta, to‘rtinchisida-6ta (0,75/0,25·2) va beshinchisida-8ta ishchi (1,0 / 0,25·2). Jami-32 kishi.

480 ta detalning mehnat sarfi 1920 min (480·4). 32 ta ishchi ham soatiga 1920 min ishlaydi (32·0), shunday ekan zanjirimiz to‘xtovsiz ishlaydi.

2-masala

Mehnat taqsimoti turlicha bo‘lgan sharoitda bir turdag'i mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan vaqt sarfi jadvalda keltirilgan. Mehnat taqsimotining iqtisodiy chegarasini aniqlang.

1.1-jadval

Ko‘rsatkich	Mehnat taqsimoti shakllari		
	predmetli	detali	jarayonli
Ish vaqtining summar harajati	15,3	13,9	16,4

Ish vaqtining eng kam summar harajati mehnat taqsimotining 2-shaklida. Shuning uchun u mehnat taqsimotining iqtisodiy chegarasi hisoblanadi.

3-masala

Agar 1-sida bir oyda bajarilayotgan ishlar mehnat sarfi 4569 norma-soat, 2-sida-5860 va 3-sida-2513 norma-soat bo‘lsa sexning o‘zaro bog‘liq uchastkalarida minimal, biroq etarli ishChilar sonini hisoblang. Ishlab chiqarish normalari rejasining bajarilishi mos holda 118, 124 va 111%, bitta ishchining ish vaqtini jamg‘armasi 176 soat.

Yechish. Har bir uchastka bo‘yicha ishchilar soni quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$CH = (Tn \cdot 100) : (Fv \cdot Pvn)$$

Bu yerda: Tn-uchastka bo‘yicha ishlar hajmining normadagi mehnat sig‘imi;

Fv-Hisobot davridagi bitta ishchining ish vaqtini jamg‘armasi;

Pvn- rejallashtirilayotgan ishlab chiqarish normalari bajarilishining o‘rtacha foizi.

Bizning misolimizda ch1=4569·100:176·118=22 kishi;

CH2=5860·100:176·124=27 kishi; va ch3=2513·100:176·111=13 kishi.

4-masala

Agar ishchilar o‘z opyerativ vaqtlarining 10% ini o‘z-o‘zlariga xizmat ko‘rsatishga sarflayotgan bo‘lsalar, asosiy ishchilarga xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘ladigan yordamchi ishchilarning minimal, biroq etarli sonini aniqlang. Sexdagi asosiy ishchilar soni 300 kishi, smenadagi opyerativ vaqt 410 minut.

5-masala

Detalni tayyorlash jarayoni 5ta o‘zaro bog‘liq va ketma-ket bajariladigan opyeratsiyalardan iborat bo‘lib, ularning mehnat sig‘imi 16,22,4,31 va 15 minut. Agar smena ichidagi detallar ishlab chiqarish rejasi 240 dona bo‘lsa, har bir opyeratsiyani bajarish uchun va umuman ishlab chiqarish zanjiriga zarur bo‘lgan ishchilar sonini aniqlang. (Tsm-8soat)

6-masala

Sexning uchta o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarish uchastkalarida normalangan ishlar mehnat sig‘imi 2050,3440 va 1890 norma-soatni tashkil qiladi. Agar birinchi ikki uchastkada bitta ishchining oylik ish vaqtini jamg‘armasi 176 soatdan bo‘lsa, uchinchisida belgilangan qisqartirilgan ish kuni bo‘yicha-154 soat bo‘lsa uchastkalar bo‘yicha ishchilar sonini va ularning sexdagi umumiy sonini aniqlang.

7-masala

Sexda 100ta asosiy stanokchi ishchilar bor. Smena davomida ularning har biri kesuvchi asbobni charxlash uchun 35 minut va yarim mahsulotni keltirish uchun 42 minut sarflaydi. Asbob charxlovchi va avtokarlarni haydovchilardan iborat yordamchi ishchilar brigadasini tashkil qilinsa asosiy ishchilar yordamchi ishlardan ozod bo‘ladilar. Ularning har birini smenadagi opyerativ vaqtini 343dan 420 minutgacha ko‘payadi. Agar ihtisoslashtirilgan brigada sharoitida bu ishlarning mehnat sig‘imi 20% kamaysa yordamchi ishchilar brigadasidagi asbsblarni charhlovchi va avtokarlar haydovchilarining sonini

2. BOZOR XO‘JALIGI TIZIMIDA MEHNAT BOZORI

Mehnat bozori – bu, mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo‘lgan va band bo‘lмаган qismlari va ish byeruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlari) asosida “mehnatga qobiliyatlarini” harid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko‘p aspektli, o‘suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, bahosi va yollashdagi raqobat.

Mehnatning yerkinligi va ixtiyoriyligi - mehnat bozori shakllanishining asosiy sharoiti yohud shartidir. Shu bilan bir qatorda mehnat bozorining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiylar va huquqiy Shart-sharoitlar va omillar mavjud.

Mehnat bozori (MB) shakllanishining asosiy iqtisodiy shart-sharoiti bo‘lib, yollanma xodimlarni o‘z ishchi kuchlariga nisbatan shaxsiy mulkchiliklari va ish byeruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi. Bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur sub’ektlarni o‘zaro almashuv munosabatiga kirishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, uning orqasida shaxsiy iste’molchilik yotadi.

MBining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatga yerishish uchun o‘zaro raqobat qilishga tayyor yerkin va teng huquqli shyeriklar iqtisodiy munosabatlarda bo‘lishlarini taqozo etadi. Bozorda yollanma xodim va ish byeruvchi shaxsiy yerkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazaridan o‘zaro bog‘langan hamda bir-birlariga qaram bo‘lsalar ham bir-birlariga qarshi turadilar.

8-masala

Mamlakat bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud(ming kishi):

Yil boshida aholi soni -15250, oxirida esa – 15360. Yil davomida tug‘ilganlar 310, o‘lganlar 190. O‘rtacha yillik ishsizlik koeffitsienti umumiyligi aholi soniga nisbatan 2% va faol aholi soniga nisbatan 4%.

Aniqlash kerak:

- 1) Aholining tug‘ilish, o‘lish va tabiiy ko‘payish koeffitsientini;
- 2) Aholining absolyut mexanik o‘sishini va mexanik o‘sish koeffitsientini;
- 3) Ish bilan bandlar, ishsizlar va iqtisodiy faol aholining o‘rtacha yillik sonini;
- 4) Jami aholiga va faol aholiga nisbatan ish bilan bandlar koeffitsientini;
- 5) Aholining faollik koeffitsientini.

Yechish.

1. Aholining o‘rtacha yillik soni. $(15250+15360) : 2 = 15305$ kishi

2. Zarur koeffitsientlarni aniqlaymiz:

-tug‘ilish koeffitsienti $310/15305 = 20.25\%$

-o‘lish koeffitsienti $190/15305 = 12.42\%$

-tabiiy ko‘payish koeffitsienti $20.25 - 12.45 = 7.83\%$

3. Absolyut mexanik o‘sish: $(15360 - 15250) - (310 - 190) = -10$

-mexanik o‘sish koeffitsienti: $(-10/15305) = -0.65\%$

4. Ishsizlarning o‘rtacha yillik soni: $15305 \cdot 0.02 = 306.1$ kishi

5. Iqtisodiy faol aholining o‘rtacha yillik soni: $306.1 / 0.04 = 7652.5$ kishi

6. Ish bilan band aholining o‘rtacha yillik soni: $7652.5 - 306.1 = 7346.4$ kishi

7. Ish bilan bandlik koeffitsientilari:

-jami aholiga nisbatan: $7346.4/15305 = 0.48 = 48\%$

- faol aholiga nisbatan: $7346.4/7652.5 = 0.96 = 96\%$

8. Aholining faollik koeffitsienti: $7652.5/15305 = 0.5 = 50\%$

9-masala

Aholining o‘rtacha yoshini va dinamikasini hisoblang.

3. Quyidagi shartli ma’lumotlar mavjud(ming kishi):

2.3- jadval

Yoshi	Jami	Shu jumladan	
		yerkaklar	Ayollar
Jami aholi	15360	8796	
SH.j. faol aholi	7636		2186
Ulardan:15-25yoshda	414	273	
25-65yoshda		4967	
65-75yoshda	376		
Ishsizlar soni	218	106	

Aniqlash kerak:

- 1) jami aholi, yerkaklar,ayollar uchun faollik koeffitsientini;
- 2) jami aholi va faol aholi uchun ish bilan bandlik va ishsizlik koeffitsientini;
- 3) faol aholining va faol yoshdagi yerkaklar hamda ayollarning o‘rtacha yoshini.

10-masala

Quyidagi shartli ma’lumotlar mavjud (ming kishi):

-1.01.ga aholi soni	1250
-1.03 ga aholi soni	1255
-1.06 ga aholi soni	1260
-1.09 ga aholi soni	1262
-1.01 ga aholi soni	1270
tug‘ilish koeffitsienti	16,7%

tabiiy o'sish koeffitsienti 7,8%

mexanik ko'payish koeffitsienti 6,4%

Ishsizlar soni quyidagini tashkil qildi:

A) iqtisodiy faol aholiga nisbatan 5,2%

B) jami aholiga nisbatan 2,7%

Aniqlash kerak:

- o'lim koeffitsientini;

- umr ko'rish koeffitsientini;

- mexanik kamayish koeffitsientini;

- mexanik ko'payish koeffitsientini;

- barcha absolyut ko'rsatkichlarni (tug'ilganlar, o'lganlar, absolyut, tabiiy, mexanik o'sish sonini);

- iqtisodiy faol va ish bilan band aholi sonini.

11-masala

Mamlakat aholisi soni yil boshida 15150 ming kishini, yil oxiriga esa 15250 ming kishini tashkil qildi. Ishsizlikning o'rtacha yillik koeffitsienti umumiyligi nisbatan 2,0% va faol aholiga nisbatan 4% tashkil qildi. Tug'ilganlar soni 350 ming kishi, o'lganlar esa 195 ming kishi.

Aniqlash kerak:

- faol aholini va aholining faollik koeffitsientini;

- aholining tug'ilish va o'lish koeffitsientini;

- absolyut, tabiy va mexanik o'sishni;

- faol va barcha aholining ish bilan bandlik koeffitsientini.

12-masala

2.4-jadval

Aholi soni haqida ushbu ma'lumotlar mavjud(ming kishi)

Hududlar	2010	2011	2012
Qoraqalpog'iston	1515,3	1546,1	1564,0
Navoiy	787,4	797,6	807,4
Sirdaryo	645,9	660,6	670,0
Farg'on'a	2680,4	2747,3	2819,1

-Hududlardagi aholining o'rtacha yillik o'sishi va o'sish sur'atlarini aniqlang.

2010-2012 yillar uchun keltirilgan hududlar aholisi sonini tavsiflaydigan doiraviy diagramma tuzing. (ularning umumiyligi sonini 100% deb qabul qiling).

3. MEHNAT RESURSLARI VA MEHNAT SALOXIYATI

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish ikkita zarur tarkibiy qismdan: bir tomonidan, moddiy resurslar (xom ashyo, asbob-uskunalar va hokazo)dan va ikkinchi tomonidan, inson resurslaridan, ya'ni kasb malakalari va bilimlariga ega bo'lgan xodimlardan iborat. Boshqacharoq qilib aytganda, mamlakat aholisining bir qismi bo'lgan inson resurslari moddiy resurslar bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ham namoyon bo'ladi. Biroq bu omillar o'z xususiyatlari qarab bir-birlaridan muhim belgilari bilan farqlanadi.

Inson resurslari - odamlardir. Ular faqat moddiy ne'matlar yaratib qolmay, shu bilan birga ularni iste'mol ham qiladilar. Odamlar o'zlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari jihatidan unchalik bir xil emaslar. Bunga ylarning jinsi, Yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli, ma'lumot darajasi va boshqa ijtimoiy, psixofiziologik sifatlari sabab bo'ladi. Shuning uchun bir kishi ikkinchisiga o'xshamaydi.

Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohiy o'zgarishlar davrida hamma narsalarni inson ehtiyojlari va taqdiri bilan muvofiqlashtirish muhimdir.

Mehnat resurslari mamlakat aholisining o'z psixofiziologik **va** aqliy sifatlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan qismidan iboratdir.

Mehnat resurslari deb, o'zining aqliy va jismoniy mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mehnatga qobiliyatli kishilar to'plamiga aytiladi.

Shunday qilib, "mehnat resurslari" o'z mazmuniga ko'ra, "iqtisodiy faol aholi" tushunchasidan kengroqdir. Iqtisodiy faol aholidan tashqari mehnat resurslari yana mehnatga layoqatli yoshdagi o'quvchilarni ham, shuningdek, ana shu yoshdagi uy bekalari va mamlakatning qolgan barcha aholisini, ya'ni ishsiz bo'lmasa ham, qandaydir sabablarga ko'ra, mamlakat xo'jaligida ish bilan band bo'lmanan aholini ham o'z ichiga oladi.

Mayjud adabiyotlarda "ish kuchi" tushunchasi ko'p ishlatilsada, uning chegarasi aniq belgilanmagan. Ba'zan ish kuchi deganda ham haqiqiy xodimlar, ham potensial xodimlar, ya'ni amalda o'sha "mehnat resurslari"ning o'zi tuShuniladi. Ko'pincha bu tushuncha tor ma'noda xodimlarning umumiy sonini anglatadi.

Bunga sabab Shu bo'lganki, ko'pgina mualliflar mehnat bozoridagi vaziyatga baho byerar ekanlar, "ish kuchiga bo'lgan talab», «ish kuchini taklif qilish" degan tushunchalardan ham foydalanadilar.

Mamlakat, hudud yoki tumanlardagi mehnat resurslari sonini aniqlashdagi boshlang'ich ma'lumotlar bo'lib, ushbu hudud aholisining soni, tarkibi va harakati ko'rsatkichlari xizmat qiladi.

Bunda quyidagi ko'rsatkichlar nazarda tutiladi.

1) Yil davomida aholining o'rtacha yillik soni R:

$$R = (R_b * R_o) / 2$$

bu yerda R_b – aholining yil boshidagi soni;

R_o - aholining yil ohiridagi soni;

2) Yil davomida umumiyl tug‘ilish koeffitsienti (n) (promilleda);

$$N=N_i/P \cdot 1000;$$

3) Yil davomida umumiyl o‘lish koeffitsienti (m) (promilleda);

$$M=N_j/P \cdot 1000;$$

4) Yil davomida aholining tabiiy o‘sishi (kamayishi) (E);

$$E=N_i-N_j$$

bu yerda N_i – yil davomida tug‘ilganlar soni;

N_j – yil davomida o‘lganlar soni;

5) Aholining tabiiy o‘sish koeffitsienti (k_t) (promilleda);

$$K_t=E/R \cdot 1000;$$

6) Yil davomida aholining mexanik (migratsilon) ko‘payishi (kamayishi) (S):

$$C=M_i - M_j;$$

Bu yerda M_i – yil davomida ko‘chib kelgan aholi soni;

M_j – yil davomida ko‘chib ketgan aholi soni;

7) Aholining mexanik ko‘payishi koeffitsienti (K_M);

$$K_m=S/R \cdot 1000;$$

8) Yil davomida aholining umumiyl ko‘payishi (ΔP)

$$\Delta Pq=EqC;$$

9) aholining umumiyl o‘sish koeffitsienti (k_o) (promilleda);

$$K_o=\Delta R/R \cdot 1000;$$

10) tahlil qilinayotgan yil oxiriga yoki kelasi yil boshiga aholi soni bashorati (R_k):

$$P_{k=P_H} E_k.$$

Mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarning ma'lum qismini sog'lig'inining yomonligi tufayli hech qachon ishlagagan yoki ishlab qo'yganlar tashkil qiladi.

Ular I va II guruh nogironlari bo'lib, ularda davlat pensiya bilan ta'minlaydi.

Shunday qilib mehnat resurslari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$MR = R_{ml} + R_{nog} + R_{pen} + R_{o'sm};$$

Bu yerda R_{ml} -mehnatga layoqatli aholi soni;

R_{nog} -I-II guruh nogironlari va imtiyozli pensionyerlar;

R_{pen} -pensiya Yoshida ishlayotganlar;

$R_{o'sm}$ -16 yoshgacha bo'lgan ishlayotgan o'smirlar;

Mehnat resurslarining tabiiy ko'payishi (MR_t)

$$MR_t = R_k - R_{Ch};$$

Bu yerda R_k - mehnatga layoqatli yoshga to'lganlar;

R_{Ch} -mehnatga layoqatli yoshdan chiqqanlar;

Mehnat resurslarining migrantsion ko'payishi, hamda mehnat resurslari soni dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlari (umumiyligi, tibiyligi va mexanik ko'payish koeffitsentlari) barcha aholi uchin o'xshash ko'rsatkichlarni hisoblash kabi aniqlanadi.

13-masala

Agar joriy yil bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa kelasi yilning boshida mehnatga layoqatli aholi sonini aniqlang: yil boshida mehnatga layoqatli

aholi soni 70 mln. kishi; yil davomida mehnatga layoqatli yoshda o‘lganlar – 0,2 mln.kishi; ushbu yilda mehnatga layoqatli yoshga to‘lgan yoshlar – 2 mln.kishi; joriy yilda pensiya Yoshiga etganlar-1,6 mln. kishi.

14-masala

Meshnatga layoqatli aholi soni 80 mln.kishi tashkil qiladi, sh.j. ishlaydigan I-II guruh nogironlar – 1,2 mln.kishi; ishlaydigan o‘smlar-0,1 mln.kishi; ishlaydigan pensiyalar – 4,5 mln.kishi.

Mehnat resurslari sonini aniqlang.

15-masala

Shaharda aholi soni 120 ming kishini tashkil qiladi, bazis davrda aholining o‘sish koeffitsenti-100 promill, mehnat resurslari ulushi – 50%.

Mehnat resurslarining aholi sonidan ulushi o‘zgarmagani holda rejallashtirilayotgan davr boshqa aholi va mehnat resurslarining istiqboldagi sonini aniqlang.

16-masala

Agar mehnatga layoqatli aholi soni 750 ming kishi bo‘lsa, ulardan mehnatga layoqatli yoshdagI I-II guruh nogironlar –10 ming kishi, 16 yoshgacha bo‘lgan ishlovchi yoshlar – 15 ming kishi, mehnatga layoqatli yoshdan yuqori yoshda ishlovchilar – 55 ming kishi bo‘lsa shahardagi mehnat resurslari sonini aniqlang.

17-masala

Agar rejallashtirilayotgan davr boshida mehnatga layoqatli aholi soni 1 mln.kishi; mehnatga layoqatli yoshga kiruvchi aholi soni 30 ming kishi; mehnatga layoqatli yoshdan chiqib ketuvchilar – 22 ming kishi4 mehnatga layoqatli; yoshda o‘lganlar – 5 ming kishi; mehnatga layoqatli yoshdagI mexanik o‘sish – 3 ming kishi bo‘lsa rejallashtirilayotgan davr oxirida mehnatga layoqatli aholi sonini aniqlang.

18-masala

Yil boshida mehnatga layoqatli yoshdagi viloyat aholisi 1 mln. kishini tashkil qilgan, pensiya yoshidagi va 16 yoshgacha bo‘lgan ishlovchilar soni 40 ming kishidan iborat.

Yil davomida mehnatga layoqatlilar tarkibida quyidagi o‘zgarishlar yuz byerdi: 250 ming kishi mehnatga layoqatli yoshga to‘lgan; 90 ming kishi boshqa viloyatlardan ko‘chib kelgan; pensiya yoshida ishlovchilar 20 ming kishi; pensiya Yoshiga, nogironlikka o‘tganlar va o‘lganlar 200 ming kishi; 15 mingta pensionyerlar ishlashdan to‘xtagan; mehnatga layoqatli 75 ming kishi boshqa hududlarga ko‘chib ketgan.

Yil boshi va oxirida mehnat resurslari sonini; mehnat resurslarining umumiyligi, tabiiy va mexanik o‘sishni hamda mos ravishda mehnat resuslari harakati koeffitsentlarni hisoblang.

19-masala

Aholining umumiyligi o‘sish koeffitsenti 10 promill, aholining umumiyligi sonidagi mehnat resurslari ulushi bazis davriga nisbatan 0,01 punktga pasayishi, rejalashtirilmayotgan davr boshida aholi soni 10 mln.kishi, mehnat resurslari – 6 mln.kishini tashkil qilgani holda hudud bo‘yicha mehnat resurslarining istiqboldagi sonini hisoblang.

20-masala

Yil boshida mehnatga layoqatli aholi soni 1 mln.kishi; mehnatga layoqatli yoshga to‘lganlar 30 ming kishi; Shu yoshlardagi o‘lganlar 5 ming kishi; mehnatga layoqatli yoshdan oshganlar 35 ming kishi; boshqa hududlardan kelganlar 350 ming kishi; ktganlar – 100 ming kishi bo‘lsa yil oxirida hududda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonini aniqlang.

21-masala

Hududda mehnatga layoqatli aholi 2 mln. kishi tashkil etadi. Shulardan ishlaymaydigan 1 va 2 guruh nogironlari 80 ming kishi, ishlovchi o'smirlar 10 ming kishi, ishlovchi pensionyerlar 180 ming kishini tashkil etgan bo'lsa hisobot davrida jami mehnat resurslari sonini aniqlang.

4. AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINING SHAKLLANISHI VA MOXIYATI

Mehnat bozoridagi vaziyat faqatgina ish bilan bandlar va ishsizlarning absolyut soni orqali emas, balki ish bilan bandlik va ishsizlik darajasi orqali ham baholanadi.

Haqiqatdagi ishsizlik darajasi quyidagicha aniqlanadi.

$$UB = \frac{B}{E_a} * 100$$

UB-ishsizlik darajasi
B-ishsizlar
Ea-iqt.faol aholi.

Iqtisodiy faol aholi sonini hisoblash;

$$E_a = 3 + B$$

Z-iqtisodiyotda bandlar soni

B-ish qidirayotgan ishsizlar.

Iqtisodiy faol aholining bandlik darajasi quyidagicha

$$UZ = \frac{Z}{E} * 100.$$

Mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi quyidagiga teng:

$$UZ_t = \frac{Z_{TR}}{E} * 100.$$

22-masala

2013 yilda mamlakat mehnat resurslari 86 mln.kishini tashkil qilgan, sh.j. mehnatga layoqatli yoshdagilar-81,3 mln.kishi, o'smir va pensiya Yoshidagi ishlayotganlar – 4,7 mln. kishi. Ulardan milliy iqtisodiyotda bandlar (shaxsiy tomorqa xo'jalikda bandlardan tashqari) 69,5 mln. kishini; o'qiyotganlar – 5,6

mln.kishi; harbiy xizmatchilar – 2,4 mln. kishi; mehnatga layoqatli yoshdagi band bo‘lmanlar – 8,5 mln.kishi, Shu jum. majburan band bo‘lmanlar (ish qidirayotganlar)3,3 mln.kishi.

Iqtisodiyotda ish bilan band bo‘lgan mehnat resurslari ulushini va turli ijtimoiy foydali faoliyat bilan aholi ulushini aniqlang. Bandlikning turlari bo‘yicha mehnat resurslarining taqsimlanishi samaradorligini tahlil qilib, xulosa yozing.

23-masala

Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi bandlar soni-85 mln. kishi; ishsizlar soni – 15 mln.kishi; bir oy o‘tgach 85 mln. kishidan ishlayotganlarning 0,5 mln.tasi ishdan bo‘shab ish qidirayotgan; rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan ishsizlarning 1 mln. tasi ish qidirishni to‘xtatgan bo‘lsa ishsizlikning boshlang‘ich darajasini, 1 oydan so‘ng ish bilan bandlar va ishsizlar sonini hamda ishsizlik darajasini hisoblang.

24-masala

Jadvalda ko‘rilayotgan davrning birinchi va beshinchi yillari uchun mehnat resurslari va bandlik haqidagi ma’lumotlar byerilgan.

4.1-jadval

Ko‘rsatkichlar	1 yil	5 yil
Iqtisodiy faol aholi	84889	95453
Ulardan ish bilan bandlar	80796	87524

Ishsizlikning tabiiy darjasini ko‘rilayotgan davrning 5 yilda iqtisodiy faol aholining 7% ni tashkil qilgan.

Aniqlash kerak.

- a) ko‘rilayotgan davrning 1 va 5 yillarida ishsizlar soni va haqiqatdagi ishsizlik darajasini hisoblang.
- b) Ish bilan bandlik va ishsizlikning birvarakay o‘sishini qanday tushintirish mumkin?
- v) Ko‘rilayotgan davrning 5-yilida to‘liq bandlik bo‘lgan deb ta’kidlash mumkinmi?

25-masala

Ko‘rilayotgan davrning birinchi va beshinchi yillari uchun mehnat resurslari va ish bilan bandlik haqidagi ma’lumotlar byerilgan.

4.2-jadval

Ko‘rsatkichlar	1 yil	5 yil
Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi ish bilan bandlar	80500	95000
Ishsizlar	4800	7000

Ko‘rilayotgan davrning 1 va 5 yillarida ishsizlik darajasini hisoblang, hamda ish bilan bandlik va ishsizlikning baravar o‘sishini tuShuntiring.

Yil boshidagi 10 mln.ta ish bilan bandlardan yil davomida ishdan bo‘shaganlar va mehnat bo‘limlarida ro‘yxatga turganlar 0,1 mln. kishini tashkil qilgan. Rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan 0,8 mln. ishsizlarning 0,05mln.tasi ish qidirishni to‘htatdilar, 0,1 mln.kishi esa ishga joylashgan. Yil oxiriga rasmiy ishsizlik darajasini hisoblang.

26-masala

Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi bandlar soni-85 mln. kishi; ishsizlar soni – 15 mln.kishi; bir oy o‘tgach 85 mln. kishidan ishlayotganlarning 0,5 mln.tasi ishdan bo‘shab ish qidirayotgan; rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan ishsizlarning 1 mln. tasi ish qidirishni to‘xtatgan bo‘lsa ishsizlikning boshlang‘ich darajasini, 1 oydan so‘ng ish bilan bandlar va ishsizlar sonini hamda ishsizlik darajasini hisoblang.

27-masala

Agar tumandagi iqtisodiy faol aholi 1 mln. kishi, rasmiy ishsizlik darajasi 3,5 % bo‘lsa, hisobot yilda tuman mehnat bo‘limida ro‘yxatdan o‘tgan ishsizlar sonini aniqlang.

28-masala

Tushunchalarning to‘g‘ri javobini belgilang

4.3-jadval

1	Friksion ishsizlik	A	Ishsizlikni tabiiy darajasidan 1% oshib ketishi haqiqatdagi YAIMni potensial imkoniyatiga nisbatan 2,5% kamayib ketishiga olib keladi.
2	Davriy ishsizlik	B	Yollanma ishchilarning o‘z hohishiga ko‘ra ish joyini o‘zgartirishi yoki ularning vaqtinchalik ishdan bo‘shash davri bilan bog‘liq ishsizlik.
3	Institutsional ishsizlik	V	Ishlab chiqarishning davriy qisqarishi bilan bog‘liq ishsizlik.
4	Tuzilmaviy ishsizlik	G	Ishlab chiqarish tuzilmasiga ishchi kuchi kasbiy tayyor-garligining mos kelmasligi bilan bog‘liq ishsizlik.
5	Iqtisodiy ishsizlik	D	Ishlay oladigan va ishlashni hoxlaydigan barcha mehnatga layoqatli shaxslar.
6	Ishsizlikning tabiiy darjası	E	Har bir xozirgi davrda ish bilan band bo‘lmagan iqtisodiy faol aholi ulushi.
7	To‘liq ish bilan bandlik	J	Mavjud ishchi kuchining 100% kamroq‘ni tashkil qil-gan va ishsizlikning noiloj shakllarini (friksion, tuzilmaviy) taqazo qiladigan ish bilan bandlik.
8	Ishsizlik darjası	Z	Ishsizlik bo‘yicha nafaqa razmyerining oshishi bilan bog‘liq ishsizlik.
9	Iqtisodiy faol aholi	I	Raqobat kurashida ishlab chiqaruvchilarning bir qismini honavayron bo‘lishi bilan bog‘lik ishsizlik.
10	Ouken qonuni	K	Ishsizlikning davriy shakli mavjud bo‘lmaganligidagi ishsizlik darjası.

5. ISHSIZLIK: SABABLARI, XUSUSIYATLARI VA KAMAYTIRISH YO'LLARI

Mehnat bozoridagi vaziyat faqatgina bandlar va ishsizlarning absolyut soni darajasi orqali ham baholanadi.

Haqiqatdagi ishsizlik darajasi quyidagi Cha aniqlanadi.

$$\frac{UB = B * 100}{E_a}$$

UB- ishsizlik darajasi

B-ishsizlar

Ea-Iqt.faol aholi.

Iqtisodiy faol aholi sonini hisoblash;

$$E_a = 3 + B$$

Z-iqtisodiyotda bandlar soni

B-ish qidirayotgan ishsizlar.

Iqtisodiy faol aholining bandlik darajasi quyidagicha

$$U = Z/E * 100.$$

Mehnat resurslarining bandlik darajasi quyidagiga teng:

$$UZ_t = k G^c_{tr} * 100.$$

29-masala

2012 yilda mamlakat mehnat resurslari 86 mln.kishini tashkil qilgan, m.j.mehnatga layoqatli yoshdagilar-81,3 mln.kishi, o'smir va pensiya yoshidagi ishlayotganlar – 4,7 mln. kishi. Ulardan milliy iqtisodiyotda bandlar (shaxsiy tomorqa xo'jalikda bandlardan tashqari) 69,5 mln. kishini; o'qitganlar – 5,6 mln.kishi; harbiy xizmatChilar – 2,4 mln. kishi; mehnatga layoqatli yoshdagi band bo'limganlar – 8,5 mln.kishi, muj. Majburan band bo'limganlar (ish qidirayotganlar)3,3 mln.kishi.

Iqtisodiyotda ish bilan band bo'lgan mehnat resurslari ulushini va turli ijtimoiy foydali faoliyat bilan aholi ulushini aniqlang. Bandlikning turlari bo'yicha mehnat resurslarining taqsimlanishi samaradorligini tahlil qilib, xulosa yozing.

30-masala

Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi bandlar soni-85 mln. kishi; ishsizlar soni – 15 mln.kishi; bir oy o'tgach 85 mln. kishidan ishlayotganlarning 0,5 mln.tasi ishdan bo'lib ish qidirayotgan; rasmiy ro'yxatdan o'tgan ishsizlarning 1 mln. tasi ish qidirishni to'xtatgan bo'lsa ishsizlikning boshlang'ich darajasini, 1 oydan so'ng ish bilan bandlar va ishsizlar sonini hamda ishsizlik darajasini hisoblang.

31-masala

Ish boshidagi 10 mln. ta bilan bandlardan yil davomida ishdan bo'shaganlar va mehnat bo'linmalaridan ro'yxatga turganlar 0,1 mln. kishini tashkil qilgan. Rasmiy ro'yxatdan o'tgan 0,8 mln. ishsizlarning, 01, mln.kishi esa ishga joylashgan. Yil oxiriga rasmiy ishsizlik darajasini hisoblang.

32- masala

Ish bilan bandlar – 90 mln.kishi, ishsizlar 10 mln.kishi. 1oy o'tgach ishlayotgan 90 mln. kishidan 0,5 mln.tasi ishdan bo'shagan va ish qidiryapti; ishsizlarning 1 mln.tasi qidirishni to'xtatgan.

Ish bilan bandlar va ishsizlar sonini hamda haqiqatdagi ishsizlik darajasini hisoblang.

33-masala

Agar tumandagi iqtisodiy faol aholi 1 mln. kishi, rasmiy ishsizlik darajasi 3,5 % bo'lsa, hisobot yilida tuman mehnat bo'limida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar sonini aniqlang.

5. MEHNAT UNUMDORLIGI: TUSHUNCHASI, OMILLARI, ZAXIRALARI

Mehnat unumdorligi - xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat harajatlariga nisbatan, ya'ni mehnat harajatlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi. Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligi darajasi mehnat unumdorligi darajasi va uning o'sishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi ishlab chiqarish usulini ham, hatto ijtimoiy - siyosiy tuzumning o'zini ham belgilab byeradi.

Mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, ish sifati zarur darajada bo'lgani holda, mehnat harajatlari qanchalik kam bo'lsa, mehnat samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Bu ko'rsatkichni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$M_d = \frac{C_m}{C_y} \cdot 100\%$$

Bu yerda: M_d - mehnatning mexanizasiyalash darajasi, %;

S_m - mexanizasiyalashgan mehnat xodimlari soni;

S_u - xodimlarning umumiyl o'rtacha ro'yxatdagi soni .

Ish vaqtidan foydalanish ishlangan vaqtning, shu jumladan, ichki smena dam olishiga ajratilgan, tartibga solingan tanaffus vaqtining mazkur ishlar turi uchun belgilangan nominal vaqt fondiga (ish kunining ish haftasi, oyi va yilning soat hisobidagi miqdoriga) nisbati sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarning indeks aloqasi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$I_{my} = I_{my\kappa} I_{mu} I_{us\phi}$$

Bu yerda: $I_{my} = I_{my\kappa} I_{mu} I_{us\phi}$ - mehnat unumdorligiga muvofiq ravishda mehnat unumdorligi kuchi, mehnat jadalligi va ish vaqtidan foydalanish indekslari.

Natural usulning bir ko'rinishi shartli-natural usul bo'lib, bunda ish hajmi bir xil mahsulotning shartli birligida hisobga olinadi. Masalan, turli hajmdagi vagonlarga, turli hajmdagi konsyerva bankalari shartli bankalarga, turli poyabzallar shartli juftga aylantiriladi. Shartli o'lchovlarga aylantirish, odatda, o'tkazish birliklari koeffisentlari yordamida amalga oshiriladi.

Shartli natural usul qo'llanish uchun qulaydir, chunki ko'pgina xilma-xil tovarlarning, xizmatlarning aylantirish koeffisentlari yordamida ishlab chiqarishni qiyoslanadigan turga keltirish mumkin. Masalan, un, non va makaron mahsulotlari sotish harajatlarini non-bulka mahsulotlarini shartli kilogrammga aylantirish orqali ifodalash mumkin.

Mehnat unumdorligini o'lchashning keng tarqalgan yana bir usuli mehnat usulidir.

Mehnat unumdorligini mehnat usuli bilan o'lchashda mahsulot birligini ishlab chiqarish yoki tovar birligini sotishga doir normativ vaqtidan foydalaniladi:

$$Y_M = \underline{\text{ish vaqtি birligidagi mahsulot hajmi}}$$

haqiqiy ish vaqtি

Bu yerda: U_m - mehnat usuli bilan o'lchangan mehnat unumdorligi.

Mehnat unumdorligiga ishlarning syermehnatligi ta'sir ko'rsatadi.

Syermehnatlik - bu, jonli mehnat sarflarini aks yettiruvchi ko'rsatkich bo'lib, u ish vaqtida, mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar)da ifodalangan. Syermehnatlik, odatda, norma-soatlarda (haqiqiy soatlarda) o'lchanadi, bu vaqt ish birligini bajarishga sarflangan bo'ladi. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga qarama-qarshi bo'lib, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$C = \frac{I_v}{M_m},$$

Bu yerda: S - syermehnatlik;

I_v - ish vaqt;

I_m - ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

34-masala

Neftni qayta ishslash zavodi hisobot yilini quyidagi ko'rsatkichlar bilan yakunlanadi.

6.1-jadval

Mahsulot	Ishlab chiqarish hajmi, ming tonna		Mahsulotning 1 tonnasi narxi, ming so'm.
	Reja bo'yicha	Amalda	
Benzin	1500	1550	320
Kyerosin	620	630	185
Dizel yokil\isi	2500	2600	170
Mazut	3200	3200	145

Korxona ishchilarining o'rtacha ro'yxat soni reja bo'yicha 2760 kishi, amalda 2710 kishini tashkil kiladi. Kelasi yilga (bashorat) benzin ishlab chiqarish

hajmini 15% ga, kyerossini 10% ga, dizel yoqilg'isini 6% ga, mazutni 8% ga ko‘paytirish rejalashtirilayapti.

Bunda ko‘rsatilgan mahsulot narxi quyidagicha ortish lozim:

- Benzin – 15 so'mga;
- Kyerosin – 10 so'mga;
- Dizel yokilg'isi - 10 so'mga;
- Mazut – 6 so'mga.

Aniqlash kerak:

A. Hisobot yilida mehnat unumdorligining o‘zgarishi.

B. Rejalashtirilayotgan davrda ishlab chiqarish hajmi ortishi va mahsulot narxi o‘zgarishini hisobga olgan holda mehnat unumdorligining o‘zgarishi qanday bo‘ladi?

35-masala

Ishlab chiqarishga yangi asbob-uskunalar joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligi 3% ga ortdi. Ishni ilmiy tashkil etish choralar tufayli ish vaktidan foydalananish 2% ga yaxshilandi. Bunda ish hajmi va ishchilar sonining ortgani bois ularning mehnat jamoasidagi umumiyligi ulushi 1,2% ga ortgan. Mehnat unumdorligining umumiyligi o‘sishi qancha bo‘ladi?

36-masala

Mehnat unumdorligini oshirish bo‘yicha o’tkazilgan chora-tadbirlar natijasida mashinasozlik zavodining yig‘ish sexida 23 kishi ozod bo‘ldi. Ushbu choralar ko‘rilmaganda rejadagi ish hajmini bajarish uchun 350 kishi kerak bo‘ladi. mehnat unumdorligining o‘sishi qancha bo‘lgan?

37-masala

Korxonaning shtat ro‘yxati bo‘yicha ishchilar soni 1950 kishini tashkil etgan. Tashkiliy-texnik chora-tadbirlar dasturida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- Ishlab chiqarishda tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirish.
- Ishlab chiqarishning texnik darajasini yuksaltirish.
- Boshqaruvni, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish.
- Ishlab chiqarish hajmini o‘zgartirish.
- Yangi kuvvatlarni ishga tushirish va o’zlashtirish.
- Tarmoqlarga oid boshqa omillar.

Yuqoridagi omillar natijasida mehnatdan ozod bo‘lgan ishchilar soni 75 kishini tashkil etadi, jumladan, yuqoridagi bandlar bo`yicha tegishli ravishda 26, 44, 12, 7, 9, 5 kishi ozod bo‘lgan.

Aniqlash kerak:

- 1) .Har bir omil bo‘yicha mehnat unumdorligining o‘sishi (o‘zgarishi).
- 2). Umuman korxona bo‘yicha mehnat unumdorligi qanday o‘zgargan (omillar yig`indisi bo‘yicha).

38-masala

Yirik mashinasozlik zavodi sexining ishchilari soni 500 kishi. mehnat unumdorligining ortishi 1,04% ni tashkil etdi. Mehnat unumdorligining ortishi natijasida qancha ishchi ozod bo‘ldi?

6. ISH HAQINI TASHKIL ETISH VA UNI ISLOX QILISH

Mehnat natijalarini aniqlash uchun qanday asosiy ko’rsatkich tatbiq etilishiga qarab ish haqining barcha tizimlarini ish haqining shakllari deb ataluvchi ikkita katta guruhga bo’lish qabul qilingan. Agar mehnat natijalarining asosiy o’lchovi sifatida tayyorlangan mahsulot (ko’rsatilgan xizmat)dan foydalaniladigan bo’lsa, u holda mehnatga haq to’lashning ishbay shakli haqida so’z yuritiladi. Agar bunday o’lchov sifatida ishlangan vaqt miqdoridan foydalanilsa, bunday holda vaqtbay ish

haqi to'g'risida gap boradi. Demak, ish haqining shakli - haq to'lash tizimlarining muayyan toifasidan iborat bo'lib, ish haq to'lash maqsadida unga narx belgilashda mehnat natijalarini hisobga olish asosiy ko'rsatkichi bo'yicha guruhlarga ajratilgan bo'ladi.

Ishbay va vaqtbay mehnat haqi to'lash tizimlarida asosiy mehnat normasi bilan bir qatorda ko'pincha bitta yoki bir nechta qo'shimcha mehnat normalaridan foydalilanadi. Ularni bajarganlik va oshirib ado etganlik uchun joriy mukofotlar (yoki asosiy ishlab chiqarish faoliyati natijalari uchun mukofotlar) to'lanadi. Ular o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra, asosiy mehnat normasiga qo'shimcha ravishda belgilanadigan mehnat normasi uchun haq to'lashdan iborat bo'ladi.

Soatbay va kunbay tarif stavkalarini tatbiq etishda xodimning ish haqi miqdori quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$I_v = S_t - T_h,$$

Bunda: I_v - vaqtbay haq to'lanadigan xodimning ish haqi (so'm);

S_t - xodimning vaqt birligidagi tarif stavkasi (so'm);

T_h - ishchining haqiqatda ishlagan vaqt (kun yoki soatlarda).

Oylik tarif stavkasini tatbiq etganda xodimning ish haqi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$H_e = \frac{C_T \cdot T_x}{T_n};$$

Bunda: S_t - oylik tarif stavkasi; T_h - bir oy ichidagi haqiqatda ishlangan kunlar miqdori;

T_{hp} - bir oy ichidagi hisoblangan ish kunlari soni (taqvim fondidan dam olish va bayram kunlari chegirib tashlanadi).

Oddiy vaqtbay haq to'lashda ishlangan vaqt miqdori bilan ish haqi o'rtasida mutanosib bog'liqlik bor. Oddiy vaqtbay mehnat haqi to'lashning boshqacha bog'lanish shakllari mavjud emas.

Mehnatga oddiy ishbay haq to'lash shunday tuzilganki, ishchining ish haqi ishbay bahoga bog'liqdir. U tayyorlangan mahsulot birligi (bajarilgan ish) uchun to'langan haqdan iborat, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish) miqdoriga bog'liq. Ish haqi miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_{ishb.} = R - n;$$

Bunda: $I_{ishb.}$ - mehnatga ishbay haq to'lanadigan xodimning ish haqi (so'm); R - mahsulot (bajarilgan ish) birligi uchun belgilangan ish haqi (so'm); n - tayyorlangan mahsulot (bajarilgan ish)ning miqdori (so'm).

Amalda mehnatga ishbay haq to'lashning quyidagi tizimlari: yakka tartibdagi, jamoa (brigada), bir yo'la haq to'lash, bevosita, ishbay-progressiv va ishbay-regressiya tizimlari qo'llanadi.

Mehnatga haq to'lashning yakka tartibdagi ishbay tizimida bajarilgan ishning (buyum, detal', opyerasiya) har bir birligi uchun o'zgarmas *ishbay narx* belgilanadi. U quyidagi formulalardan biri bo'yicha aniqlanadi:

$$R = \frac{C_{Tp}}{H_{uu}} \quad \text{yoki} \quad R = S_{tr} - N_{vt};$$

Bunda: R - ishbay narx (so'm, tiyin); S_{tr} - bajarilayotgan ish razryadiga to'g'ri keladigan tarif stavkasi (so'm, tiyin); N_{vt} - mahsulot ishlab chiqarish normasi; N_{vt} - vaqt normasi.

Ko'p stanokli xizmat ko'rsatish sharoitida yakka tartibdagi ishbay haq to'lashni tashkil etish muayyan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Agar ishbay ishchi vaqt normalari bo'yicha bir necha stanokda ishlasa, belgilangan xizmat ko'rsatish me'yori shu doirada bo'lganda, ishbay norxlar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R = \frac{C_{mp}}{n} \cdot H_{\theta m};$$

Bunda: n - xizmat ko'rsatish 39-me'yori bilan belgilangan stanoklar soni.

Umumiy jamoa narxlarini aniqlashning ikkita varianti mavjud bo'lishi mumkin. Birinchi variantda brigada a'zolarining kundalik tarif stavkalari summasi brigadaning smenada ishlab chiqargan mahsuloti normasiga bo'linadi:

$$R_{\text{sc}} = \sum_{t=1}^n C_{T_i} \cdot \frac{I}{H_{\text{упбр}}} ;$$

Bunda: R_j - jamoa ishbay narxi (so'm, tiyin); $N_{iCh\ br}$ - brigadaning mahsulot ishlab chiqarish normasi; S_{ti} - ishchining tarif stavkasi (so'm, tiyin); n - brigada ishshilari soni.

39-masala

Detallarning sifatini tekshiruvchi 4-darajali nazoratchi 1 oyda 176 soat ishlagan, sifatli ishlagani uchun unga 20% muxofot byeriladi. Nazoratchining oylik ish kasi topilsin.

40-masala

Xizmatchi xodimning oylik maoshi miqdori 720000 so'm.

U ma'lum oyda jadvalda ko'rsatilgan 24 ish kunining o'rniga haqiqiy 22 kun ishlagan. Unga ishni sifatli bajarganligi uchun 40% mukofot belgilangan. xizmatchi xodimning oylik maoshi topilsin.

41-masala

Ishchi oy davomida jadvalga asosan 160 soat ishlab, 800 ta detal tayyorladi. U ratsionalizatorlik taklifini kiritib, ishlab turgan texnologiyani takomillash-tirishga yerishdi. Natijada 1 ta detalga sarflanadigan mehnat harajatini 0,03 soatga kamaytirdi. Ishchining ish unumi necha foizga oshganini toping.

42-masala

Ishchi 7 soatlik ish kunida 18 detal tayyorladi. Ularning har birining vaqt normasi 15 minut edi. Bundan tashqari yana kar birining vaqt normasi 48 minugga

teng 6 detal ham tayyorladi. Ishchi smenada normasini necha foizga bajarganligini anišlang.

43-masala

Ishbay xaq to‘lash usulida ishlaydigan 4-razryadli to-kar 1 oy davomida donabay vaqtি 45 minut bo‘lgan 540 detal va donabay vaqtি 20 minutga teng 340 ta detal tayyorladi. Ishchi ishni sifatli bajarganligi uchun unga 20% mukofot byeriladi. Ishchining oylik maoshi topilsin.

44-masala

5-razryadli ishchi 1 oy davomida uch xil detal tayyorladi. 1 xilidan 100 dona, donabay vaqtি 30 minut. 2-xili 420 dona, donabay vaqtি 40 minut. 3 xilidan 180 dona, donabay vaqqi 50 minut. Ishchi jadvalga asosan 1 oyda 176 soat ishlab byergan.

Ishchining oylik maosh miqdori va normani bajarish foizi topilsin.

45-masala

Vaqtbay xaq to‘lash usulida ishlaydigan 4-razryadli elektropayvandlovchi 8 soatlik ish kunida, 1 oy davomi-da 5-razryad bo‘yicha 120 soat va 4-razryad bo‘yicha 160 soatlik ish hajmini bajargan. Ishni sifatli bajarganligi uchun unga 20% mukofot byeriladi. Ishchining oylik maoshi topilsin.

46-masala

Ishlov byerish jarayonining vaqt normasi 12 minutni tashkil etadi. Mazkur jarayonni 3-darajali stanokchi ba-jaradi. Shu jarayonning ishbay narxi topilsin.

47-masala

Ishbay o‘sib boruvchi usulda ishlovchi tokar 1 oy davo-mida 4-razryad bo‘yicha donabay vaqtি 15 minutli 420 ta detal va donabay vaqtি 30 minutga teng bo‘lgan 300 ta detal tayyorladi. Ishbay ish xaqi to‘lash usuliga asosan ishchi ishni oldindan belgilangan (100%) normadan 1-15% orttirib bajarsa 15% mukofot, 15% dan ham yuqori bajarsa 20% mukofot byeriladi. Ishchi 1 oy davomida 170 soat ishlagan. Ishchining ishbay o‘sib boruvchi usulda ishlagan maosh miqdori topilsin.

7. INSON TARAQQIYOTI KONSEPSIYASI. INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI O'LCHASH USULLARI

Turmush darajasi moddiy farovonlik darajasini, ya'ni odamlarning moddiy ehtiyoji qondirilganligining darajasini ifoda etadi. Uning mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichini aholi jon boshiga YAIM ko'rsatkich ifoda qiladi.

Turmush sifati esa "nomoddiy" yoki pulda ifodalanmaydigan hamda faqat pul bilan belgilanmaydigan xususiyatlar: odamlarning salomatligi va umr ko'rish davomiyligi, dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish, madaniy rivojlanish, o'zligini namoyon qilish, bilimlar va ma'naviy boylikning boshqa ne'matlaridan foydalanish imkoniyatlarini qamrab oladi.

Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi har yili turli mamlakatlarda turmush darajasi, savodxonlik, ta'lim, umr ko'rish davomiyligi kabi inson salohiyatining asosiy xususiyatlarini o'lhash va taqqoslash uchun har yili hisoblab chiqiladi. U turli mamlakatlar va mintaqalar turmush darajasi o'rtasidagi umumiy farqlarni aniqlashda standart va vosita vazifasini o'taydi. Mazkur indeks BMTning Rivojlanish dasturi doirasida inson salohiyatini rivojlantirish to'g'risidagi hisobotlarda e'lon qilinadi.

ITI, ITIT, GTI, KKI komponentlari va ko'rsatkichlari

Inson taraqqiyoti indeksi (ITI)			
O'lchovlar	<i>Uzoq umr ko'rish va salomatlik</i>	<i>Bilimlar</i>	<i>Munosib turmush darajasi</i>
Ko'rstkichlar	<i>Tug'ilganda kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi</i>	<i>O'qishning o'rtacha davomiyligi</i>	<i>Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAMM</i>
		<i>Kutilayotgan o'qish davomiyligi</i>	<i>(harid pariteti bo'yicha AQSH dollarida)</i>
Ko'rstkichlar indekslari	<i>Hayot davomiyligi indeksi</i>	<i>Ta'lim indeksi</i>	<i>YAMM indeksi</i>

Tengsizlikni hisobga olgan holda inson taraqqiyoti indeksi (ITIT)				
O'chovlar	<i>Uzoq umr ko'rish va salomatlik</i>	<i>Bilimlar</i>		<i>Munosib turmush darajasi</i>
Ko'rstkichlar	Tug'ilganda kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi	O'qishning o'rtacha davomiyligi		Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAMM (harid pariteti bo'yicha AQSH dollarida)
		Kutilayotgan o'qish davomiyligi		
Ko'rstkichlar indekslari	Tengsizlikni hisobga olgan holda tuzatish kiritilgan Hayot davomiyligi indeksi	Tengsizlikni hisobga olgan holda tuzatish kiritilgan Ta'lim indeksi		Tengsizlikni hisobga olgan holda tuzatish kiritilgan YAMM indeksi
Gendyer tengsizlik indeksi (GTI)				
O'chovlar	<i>Salomatlik</i>	<i>Huquq va imkoniyatlarni kengaytirish</i>		<i>Jamiyat hayotida ishtirok etish yoki ijtimoiy izolyasiya</i>
Ko'rstkichlar	Onalar o'limi indeksi	Kamida o'rta ma'lumotga ega bo'lgan ayol va yerkak aholi	Ayollar va erkaklarning parlamentda egallagan joylari ulushi	Ayol va yerkak aholining iqtisodiy faoliy ko'rsatkichlari
	O'smirlarda tug'ilish indeksi			
Ko'rstkichlar indekslari	Ayollarning reproduktiv salomatligi indeksi	Ayollarning huquq va imkoniyatlarni kengaytirish indeksi	Ayollarning iqtisodiy faoliy indeksi	Yerkaklarning huquq va imkoniyatlarni kengaytirish indeksi
	Ayollarning gendyer indeksi			Yerkaklarning iqtisodiy faoliy indeksi
Yerkaklarning gendyer				

			indeksi
Ko‘pqirrali kambag‘allik indeksi (KKI)			
O‘lchov-lar	<i>Salomatlik</i>	<i>Bilim</i>	<i>Turmush darajasi</i>
Ko‘rstkich-lar	Ovqatlanish	O‘qish davomiyligi	Ovqat tayyorlash uchun yoqilg‘i turi
	Bolalar o‘limi	Bolalarning ta’lim bilan qamrab olinganligi	Tualet
			Suv
			Elektr
			Pol
			Aktivlar
Kambag‘allik o‘lchov-lari	Kambag‘allik intensivligi	Kambag‘allik koeffitsienti	

ISRI ni hisoblab chiqishda ko‘rsatkichlarning uch turi hisobga olinadi:

- inson tug‘ilgan paytda kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish;
- ta’lim olishning o‘rtacha davomiyligi va ta’lim olishning kutilayotgan davomiyligi;
- munosib turmush darajasi. Bu aholi jon boshiga yalpi milliy daromadning harid qobiliyati pariteti bo‘yicha AQSH dollarida baholanadi.

Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi insonni rivojlantirishining integral jamlanma ko‘rsatkichidir. U yuqorida qayd qilingan uchta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakatda yerishilgan o‘rtacha darajani ifoda etadi.

Mazkur uch mezon bo‘yicha integral indeksni aniqlash uchun dastavval har bir mezonning indeksi hisoblab chiqilishi kerak. Ko‘rsatkichlarni 0 dan 1,0 gacha bo‘lgan miqdorini indekslarga aylantirish uchun mezonlarning eng kam va eng ko‘p miqdorlarini o‘rnatish talab qilinadi. Indeksning integral ko‘rsatkichini hisoblab chiqish uchun o‘rtacha biometrik miqdorlar ishlatalishi sababli eng ko‘p

miqdor har qanday ikki mamlakat yoki vaqt davrlari o'rtasidagi taqqoslashga (foizlarda) ta'sir ko'rsatmaydi.

Eng ko'p miqdor mamlakatlarning amalda kuzatilayotgan oliy darajalariga vaqt qatori bo'yicha belgilanadi. Masalan, BMT Rivojlanish dasturining 2010 yilgi Insonni rivojlantirish global ma'rzasida 1980-2010 yillardagi ko'rsatkichlardan foydalanilgan.

Taqqoslashga mezonlarning eng kam miqdorlari ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun indekslarni hisoblab chiqishda tirikchilik ko'rishning eng kam miqdori yoki "tabiiy 0" kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Quyidagi eng kam miqdorlar belgilangan:

- tug'ilgan paytda kutilayotgan umr davomiyligi - 20 yil (uzoq muddatli tarixiy ma'lumotlarga asoslangan);
- ta'lim sohasidagi ikkala ko'rsatkich uchun – 0 yil (ta'limning eng kam darajasi to'g'risidagi tasavvur jamiyat amalda rasmiy ta'limsiz ham amal etishi mumkinligiga asoslangan);
- aholi jon boshiga yalpi milliy daromad – 163 AQSH dollari (bu birorta mamlakat, masalan Zimbaveda 2008 yilda kuniga 45 sentga teng bo'lgan eng kichik miqdordir. Mazkur miqdor Jahon banki tomonidan o'rnatalgan, kuniga 1,25 AQSH dollarini tashkil etadigan kambag'allik chizig'i darajasidan biroz ortiqdir).

Eng kichik va eng yuqori miqdorlar aniqlangandan so'ng kichik indekslar quyidagicha aniqlanadi:

O'lchash indeksi = amaldagi miqdor – eng kam miqdor : eng ko'p miqdor – eng kichik miqdor

Ta'lim soaxsi uchun mazkur 1-tenglama har ikki tarkibiy qismga nisbatan qo'llaniladi. Buning natijasida ularning o'rtacha geometrik miqdori topiladi, shundan so'ng 1-tenglama ikkinchi mirotaba ishlatiladi. Buni 1–englamasini ikki tarkibiy qismi o'rtacha geometrik miqdoriga tenglashtirish mumkin.

Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi uch o'lchov indekslari o'rtacha geometrik miqdori jamlanmasidir:

$$(ITurmush^{1/3} + ITa'lim^{1/3} + IDaromad^{1/3})$$

Talabalarning mustaqil ishlashi uchun topshiriq

BMT Rivojlanish dasturining 2010 yilgi Insonni rivojlantirish global ma’ruzasida foydalanilgan eng yuqori miqdor ko‘rsatkichlari 7.1-jadvalda keltirilgan. Ma’lumotlarni taxlil qiling.¹

O‘lchamlar	Kuzatilgan eng yuqori miqdor ko‘rsatkichi	Eng kam miqdor ko‘rsatkichi
Tug‘ilgan paytda kutilayotgan umr davomiyligi (yil)	83,2 (Yaponiya, 2010 yil)	20,0
Ta’limning o‘rtacha davomiyligi (yil)	13,2 (AQSH, 2010 yil)	0
Ta’limning kutilayotgan davomiyligi (yil)	20,6 (Avstraliya)	0
Ta’limning jamlanma indeksi	0,95 (Yangi Zelandiya)	0
Aholi jon boshiga daromad (harid qobiliyati pariteti bo‘yicha, AQSH dollarri)	108211 (Birlashgan Arab Amirliklari, 1980 yil)	163 (Zimbabwe, 2008 yil)

¹ Реальное богатство народов: пути к развитию человека. Доклад о развитии человека – 2010. 20-е, юбилейное издание. – М.: Издательство «Весь Мир», 2010. – С.216.

8. MING YILLIK DEKLARATSIYASI VA MING YILLIK RIVOJLANISH MAQSADLARI

2000 yilning sentyabrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining *Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi* e’lon qilindi. 189 mamlakat tomonidan qabul qilingan ushbu Deklaratsiyada davlatlar o‘z zimmasiga qashshoqlikka barham byerish uchun Yangi global shyeriklini yo‘lga qo‘yish majburiyatini oldilar. Shuningdek, 2015 yilga borib yerishilishi kerak bo‘lgan boshqa maqsadlar ham belgilandi. Ular *Mingyillik rivojlanish maqsadlari* nomini oldi.

Rivojlanish soxasidagi maqsadlar BMT tomonidan qator yillar davomida o‘tkazilgan xalqaro konfyerensiyalarning bitimlari va rezolyusiyalari asosida ishlab

chiqildi. Ushbu maqsadlar 1996-yilda “Rivojlanish soxasidagi xalqaro maqsadlar” sifatida shakllantirilgan edi. Shundan keyin bu maqsadlarni takomillashtirish davom yettirildi.

Mingyillik rivojlanish deklaratsiyada insonni global rivojlantirish va inson xavfsizligini ta'minlashga yerishish uchun umumiylar harakat rejasiga o'z ifodasini topdi. Shu bilan bir qatorda mazkur maqsadlarda ko'zda tutilgan hal qiluvchi yo'naliishlar bo'yicha jahonda yerishilgan muvafaqiyatlarni o'lchash va ular monitoringini o'tkazishning miqdor mezonlari taklif etildi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlari 8 maqsad, 18 vazifa va 48 ko'rsatkichdan iborat Mazkur vazifalarining aksariyat ko'pchiligi 1990 – yillarda jahonda tarkib topgan ahvolni hisobga olgan holda 2015 yilga qadar hal qilinishi rejalandi.

Mingyillik rivojlanish global maqsadlari doirasida mamlakatlar o'z milliy muammolarini hal etishga qaratilgan maqsadlarini belgilab olishlari mumkin edi. Ayni paytda Mingyillik rivojlanish maqsadlari faqat rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidangina emas, shuningdek, rivojlangan davlatlar tomonidan ham aniq choralar ko'rinishini talab etadi. Rivojlangan davlatlar belgilangan global maqsadlarda yerishishga o'z hissalarini qo'shishlari ko'zda tutilgan.

Mingyillik rivojlanish maqsadlari va vazifalari

Maqsadlar	Vazifalar
<u>1-MAQSAD. Nihoyatda qashshoqlik va o'Chlikka barham byerish</u>	<ul style="list-style-type: none"> • 1990-2015- yillar davomida kuniga 1 AQSH dollari miqdorida daromadga ega bo'lgan aholi ulushini ikki baravarga kamaytirish. • Hamma uchun, Shu jumladan ayollar va yoshlar uchun to'la va samarali ish bilan bandlikni hamda munosib ishga ega bo'lishni ta'minlash. • 1990-2015- yillar davomida o'Chlikdan azob chekayotganlar sonini ikki baravarga kamaytirish
<u>2-MAQSAD. Umumiylar boshlang'ich ta'limni ta'minlash</u>	<ul style="list-style-type: none"> • 2015 yilga kelib jahondagi barcha bolalar – ham o'g'il bolalar, ham qizlar to'la hajmda boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatlariga ega bo'lishlarini ta'minlash
<u>3-MAQSAD. Yerkaklar va</u>	<ul style="list-style-type: none"> • 2005 yilda boshlang'ich va o'rta ta'lim

ayollar tengligini rag‘batlantirish hamda ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish	sohasida, 2015 yildan kechiktirmasdan esa ta’limning barcha darajalarida jinslar o‘rtasidagi tengsizlikka barham byerish
<u>4-MAQSAD.</u> Bolalar o‘limini kamaytirish	<ul style="list-style-type: none"> • 1990-2015- yillar davomida 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida o‘limni uchdan ikki barobarga kamaytirish
<u>5-MAQSAD.</u> Onalikni muhofaza qilishni yaxshilash	<ul style="list-style-type: none"> • 1990-2015- yillar davomida onalar o‘limini to‘rdan uch baravarga kamaytirish. • 2015-yilga borib reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlardan hammaning foydalanishini ta’minlash.
<u>6-MAQSAD.</u> VICH/SPID, bezgak va boshqa kasalliklar bilan kurashish	<ul style="list-style-type: none"> • 2015-yilga borib VICH/SPID tarqalishini to‘xtatish va kasalliklarni kamaytirish tendensiyasi boshlanishiga yerishish. • 2010-yilga borib SPIDdan davolanishni xohlagan hammaga bu imkoniyatni yaratish. • 2015-yilga borib bezgak va boshqa asosiy kasalliklar tarqalishini to‘xtatish hamda kasallik kamayishi tendensiyasi boshlanishiga yerishish
<u>7-MAQSAD.</u> Ekologik barqarorlikni ta’minlash	<ul style="list-style-type: none"> • Barqaror rivojlanish prinsiplarini mamlakat strategiyalari va dasturlariga qo‘sish g‘amda tabiiy resurslar yo‘qotilishi jarayonlarini to‘xtatish. • 2010-yilga borib biologik xilma-xillik yo‘qotilishi sur’atlarini sezilarli darajada kamaytirish orqali biologik xilma-xillik kamayishi ko‘lmlarini kamaytirish. • 2015-yilga borib toza ichimlik suvi va asosiy sanitariya-gigiena vositalariga doimiy ega bo‘lмаган ахоли ulushini ikki baravarga kamaytirish.

	<ul style="list-style-type: none"> • 2020-yilga borib vayrona kulbalarda yashayotgan kamida 100 million kishining turmush sharoitlari jiddiy ravishda yaxshilanishini ta'minlash
<u>8-MAQSAD. Rivojlanish maqsadlarida global shyerikChilknishakllantirish</u>	<ul style="list-style-type: none"> • Eng rivojlanmagan mamlakatlar, dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mamlakatlar va orollardagi kichik rivojlanayotgan mamlakatlar alohida ehtiyojlarini qondirish. • Ochiq, tartibga solinadigan, barqaror va Kamsitmaydigan savdo va moliya tizimini yaratishni davom yettirish. • Rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzdorlik muammolarini kompleks hal etish. • Farmatsevtika kompaniyalari bilan hamkorlikda rivojlanayotgan mamlakatlarni arzon dorilar bilan ta'minlash. • Xususiy sektor bilan hamkorlikda hamma Yangi texnologiyalar, ayniqsa axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari afzalliklaridan foydalana olishi uchun choralar ko‘rish

Mingyilik rivojlanish maqsadlarining monitoringi umuman BMT tizimi bo‘yicha ham, shuningdek, ayrim davlatlar darajasida ham amalga oshiriladi. Umumiy darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi BMTning Bosh Assambleyalarida Mingyillik rivojlanish maqsadlari ayrim vazifalarining bajaralishi to‘g‘risida har yili hisob byerishi Shart. Mingyillik rivojlanish maqsadlari to‘g‘risidagi hisobot mamlkatlar tomonidan har 5 yilda bir marta taqdim etiladi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlarining dastlabki yetti maqsadi bir-birini o‘zaro to‘ldiradi hamda kambag‘allikning barcha ko‘rinishlarini kamaytirishga qaratilgan. Mazkur muammolarga ochlik, tirikchilik uchun mablag‘ning etishmasligi, ta’lim

va sog‘liqni saqlash darajasining pastligi, yerkak va ayollarning tengsizligi hamda atrof muhit ahvolining yomonlashishi kiradi. Ushbu har bir maqsad o‘zicha muhim bo‘lishiga qaramasdan ular jamlanma holda kambag‘allik muammosini hal etishga kompleks yondaShuvni nazarda tutadi.


Masalan, sog‘liqni saqlash samaradorligini oshirish mакtab o‘quvchilarining soni ko‘payishiga va kambag‘allik darajasi pasayishiga olib keladi. Aholining ta’lim darajasini oshirish odamlar sog‘lig‘ini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Daromadlarning ortishi insonga o‘z ta’limi darajasini oshirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytiradi, Shuningdek atrof muhitni sog‘lomashtirishga yordam byeradi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlarining sakkizinchi maqsadi rivojlanish maqsadlarida global shyerikchilini shakllantirishni nazarda tutadi. U mohiyat jihatidan yuqoridagi dastlabki yettila maqsadga yerishish vositalarini belgilab byeradi. Mingyillik rivojlanish maqsadlariga yerishish boy davlatlardan qo‘srimcha yordamni, Shu jumladan kambag‘al mamlakatlar qarzlarini kamaytirish va o‘zaro savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish orqali yordam ko‘rsatishni talab qilishi mumkin.

Talabalarni mustaqil ishlashi uchun topshiriq

Quyidagi 8.1-rasmda onalar o‘limi ko‘rsatkichi dinamikasi keltirilgan. 2011 yilga nisbatan onalar o‘limi ko‘rsatkichini o‘zgarishini aniqlang



8.1.-rasm. Onalar o'limi ko'rsatkichi (har 100 ming onaga o'rtacha).

O'zbekistonda 2002-2010 yillarda sil bilan kasallanish o'lim ko'rsatkiChlari tahlil qiling.



8.2.-rasm.

9.DEMOGRAFIK VAZIYAT VA UNING INSON TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Har bir mamlakatdagi demografik vaziyat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tug'ilish darajasining o'sishi muayyan vaqtdan so'ng mehnat bozorida ish bilan bandlik tegishli ravishda o'zgarishiga hamda davlat budgetining ijtimoiy ehtiyojlarga harajatlari darajasiga, shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi amal etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demografik tendensiyalarning o'zgarishi va insonni rivojlantirish – o'zaro bog'liq jarayondir.

Demografiya – aholi takror hosil qilinishi qonuniyatlar, uning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy sharoitlar, migratsiyaga bog'liqligi, aholining soni, ularning hududlarda joylashishi, tarkibi, o'zgarishi, sabablari va mazkur o'zgarishlar oqibatlari to'g'risidagi fandir.

Demografik vaziyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. U aholining tabiiy o'sishi, milliy va ijtimoiy tarkibi, migratsiyasi, mehnat resurslari va ularning ish bilan bandligi kabi kategoriyalarni mujassamlashtiradi.

Aholi umumiy sonini hisoblab Chiqishda demografik balans tenglamasidan foydalilanildi:

$$P = P_0 + (N - M) + (V_+ - V_-) = P_0 + E + V_{pr},$$

bunda: P — aholining umumiy soni;

P_0 — yil boshidagi aholi soni;

N — tug'ilganlarning umumiy soni;

M — o'lganlarning umumiy soni;

E — aholining tabiiy o'sishi;

V_+ — ko'chib kelganlar soni;

V_- — ko'chib ketganlar soni.

Aholi sonining umumiy o'sishi esa quyidagicha hisoblab chiqiladi :

$$P_I - P_0 = P_{pr},$$

bunda: R_0 — davr boshida (odatda yil) aholi soni;

R_I — davr oxirida aholi soni.

Aholining tabiiy o'sishi tenglamasi quyidagiChadir:

$$N - M = E,$$

bunda: N — tug'ilganlarning umumiy soni;

M — o'lganlarning umumiy soni.

Demografik siyosat aholini takror hosil qilishni tartibga solish, uning eng maqbul miqdor va sifat xususiyatlariga yerishishga yo'naltirilgan choralarni nazarda tutadi. Amalda bu sog'lom avlodni takror qilishni bildiradi. Demografik rivojlanish dasturlari kompleks xususiyatga ega bo'lishi ijtimoiy hayot omillarining keng doirasini qamrab olishi, demografik jarayonlarning oqibatlarini hisobga olishi kerak. Shuning uchun jahon aholisining muammolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining doimiy diqqat markazidadir. BMT aholiShunoslik, Shu jumladan demografik, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro munosabati muammolari sohasida tadqiqotlar olib boradi, davlatlarga demografik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ko'maklashadi, aholiShunoslikning turli masalalari bo'yicha umumjahon konfyerensiylarini o'tkazadi.

Talabalarning mustaqil ishlashi uchun topshiriq

O'zbekistonda aholi sonining o'zgarish dinamikasi 2007-2011 yillar bo'yicha taxlil qiling. O'zbekistonda aholi sonining o'zgarish dinamikasi

9.1-jadval

O‘zbekistonda aholi sonining o‘zgarish dinamikasi (ming kishi)*

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2011- yilda 2007- yilga nisbatan o‘zgarishi	+,-	foiz
	2007	2008	2009	2010	2011			
Jami aholi soni	27072,2	27533,3	28001,4	28453,7	29123,3	2051,1	107,5	
Shundan:								
Shahar aholisi	9584,6	9758,3	14327,8	14618,4	14897,4	5312,8	155,4	
Qishloq aholisi	17487,6	17775,0	13673,6	13835,3	14225,9	-3261,7	81,3	

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

9.2-jadval

O‘zbekistonda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar (ming kishi)*

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2011 yilda 1995 yilga nisbatan o‘zgarish	+,-	foiz
	1995	2008	2009	2010	2011			
Tug‘ilganlar soni	678,0	608,9	646,1	651,3	669,6	-8,4	98,7	
O‘lganlar soni	145,4	137,4	138,8	133,6	138,4	-7,0	95,2	
Nikoh qurbanlar soni	168,9	254,2	250,2	272,0	292,3	123,4	173,0	
Ajralishlar soni	28,5	19,4	18,3	17,8	17,6	-10,9	61,7	

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

10. TA'LIM VA INSON TARAQQIYOTI

Oliy ta'lim tizimining maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlarda belgilangan. Bu vazifalar univyersitetlar, akademiyalar va institatlarda xal etiladi. Oliy ta'lim soxasidagi o'zgarishlarni samarali boshqarish uchun ham milliy, ham institutsional miqyosda ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mashul bo'lgan shaxslar o'rtaida, professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalar, mehnat soxasi, OTMlar va jamiyat o'rtaida yaqindan hamkorlik zarur. Boshqarishdan asosiy maqsad oliy ta'lim muassasalarining institutsional vazifasini ta'lim byerish, kadrlar tayyorlash yuqori darajasini ta'minlash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan mustaxkamlashdan iborat bo'lishi lozim.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini tahminlashga asos bo'lib hisoblanadi. Ta'limning maqsadi va qimmatini, uning mazmuni va natijasini (tayyorlov darajasiga talabni), ta'lim-kasb dasturlari asosiy xususiyatini, ta'lim jarayoni shakliy tuzumini, uning maqsadga yerishish darajasini, bosqichma-bosqich va yakuniy tashxislash mo'ljallangan ko'lамини va vaqt me'yорини, ta'lim va ma'lumotlilik darajasini belgilovchi davlat ta'lim standarti hisoblanadi. DTS ishlab chiqarish asosiy tamoyillari quyidagicha:

- insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish;
- nazariylashtirish;
- umum ta'lim va umumkasbiy tayyorlov;
- vorislik va uzlucksizlik;
- oldindan tayyorlov;
- ta'lim kasb dasturlarining dolzarbliji;
- talabaning akademik safarbarligi;
- fanlar qism va guruxlarini uyg'unlashtirish;
- mustaqil taxesil ko'nikmalarini xosil qilish;
- sifatning ko'p bosqichli nazorati.

DTS ning tashkiliy-boshqaruv vazifasi - ta'lim tizimi sifati va miqdoriy tavsifini tartibga solish va chegaralashdan iborat. Bular yordamida korxona, davlat, jamiyat, ish byeruvchi va x.k.lar tomonidan ta'limni nazorat qilish tahminlanadi.

Oliy ta'lim soxasidagi sifat, uning quyidagi funksiyalari va faoliyat turlarini qamrab oluvchi ko'p o'lchamli konsepsiya hisoblanadi: o'quv va akademik programmalar, ilmiy tadqiqotlar va stipendiyalar, kadrlar bilan ta'minlash, o'quvchilar, bino, moddiy-mexanikaviy asos va jixozlar, jamiyat farovonligi yo'lidagi ishlar. Sifat muammosini hal etishda unga tahsir etuvchi omillarning butun majmuuni ular o'zaro bog'liqligi va o'zaro harakatida boshqarish lozim, ya'ni tizimli yondashishdan foydalanishi kerak.

Talabalarining mustaqil ishlashi uchun topshiriq

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlarini taxlil qiling

10.1-jadval

Yosh	Ta'lim turlari		Ma'lumot darajasi	
31	Katta ilmiy hodim-izlanuvchi (ish muddati 2-3 yildan kam bo'lмаган)	Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim		
30				
29				
28				
27				
26				
25				
24	Oliy ta'lim	Magistratura (2 yildan kam bo'lмаган)	Oliy ta'lim	
23				
22		Bakalavriat (4 yildan kam bo'lмаган)		
21				
20				

19			
18	Akademik litsey (o'qish muddati 3 yil)	Kasb – hunar kolleji (o'qish muddati 3 yil)	O'rta maxsus, kasb – hunar ta'lifi
17			
16			
15			
14		Umumiy o'rta ta'lim (o'qish muddati 5 yil)	
13			
12			
11			Umumiy o'rta ta'lim
10			
9		Boshlang'ich ta'lim (o'qish muddati 4 yil)	
8			
7			
6			
5		II bosqich	
4			
3			Maktabgacha ta'lim
2		I bosqich	
1			

Manba: "Ta'lif to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va "Oliy malakali ilmiy va ilmiy – pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirdari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori asosida tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi OTM lari 2010 yil boyicha taxlil eting

10.2-jadval

1991-yilda	2010-yilga kelib
TM lari soni- 53 ta Shundan: univyersetetlar -6 ta insititutlar -42 ta filiallar -5 ta	OTM lari soni- 76 ta Univyersetetlar -19 ta Insititutlar -36 ta Akademiyalar-2 ta Konsyervatoriya-1 ta Raqs va xoreografiya oily maktabi-1 ta OTM lari filiallari-11 ta; Xorijiy davlatlar oily talim muassasalarining filiallari -6 ta

Misol tariqasida faraz qilaylik: ta’lim muassasasining kunduzgi bo’limida kursdan kursga ko’chuvchi talabalar soni 1015 nafar, qabul grangi 300 nafar, bitiruvchilar — 200 nafar, ketish — 40 nafar, Rejalashtiriladigan yil oxiridagi kontingent yil boshida kursdan kursga o’tuvchi kontingentga grant bo'yicha qabul qilinuvchi talabalar qo’shiladi, bitiruvchi va ketadiganlar ayrıldı (1015+300-200-40), demak u 1075 nafarni tashkil etadi. Talabalar yillik o’rtacha kontingentini aniqlang.

Yillik o’rtacha qabul kontingenta ular o’qiydigan yil davomiyligini hisobga olib belgilanadi. Agar bitiruv muddati o’quv rejasida 1 yil deb belgilangan bo’lsa, unxo bitiruv yillik o’rtacha kontingenti shu yilda talabalar bitirgachdan keyin qolgan oylar miqdoriga ko’ra hisoblanadi, yahni 6 oyga (200×6 oy/12 oy).

Yillik o’rtacha o’qishdan ketish, odatda amaldagi ketish 60% ga teng deb olinadi. U avval o’tgan 2-3 yil hisobot mahlumotlari asosida hisoblanadi.

Talabalarning yillik o’rtacha miqdori kunduzgi va sirtqi ta’lim turi bo'yicha aloxida belgilanadi.

Smeta hisob qilinayotganda talabalar miqdori buxgaltyeriya hisoboti asosida belgilanadi.

12. TURMUSH, TENGSIZLIK DARAJASI VA INSON TARAQQIYOTI

Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. «Turmush darajasi» tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli keng qamrovli tushunchadir.

Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi. Tarixiy jihatdan «turmush sifati» konsepsiysi inson hayot faoliyatining iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi «global ish bilan bandlik», «turmush darajasi», «mehnat faoliyati sifati» kabi konsepsiyalarning rivojlanishi va o'zaro uyg'unlashuv asosida yuzaga kelgan.

Turmush darajasini baholash uchun qo'yidagi keltirilgan ko'rsatkichlar mavjud:

- darajaga oid ko'rsatkichlar (mutlaq qiymatlar);
- tarkibiy ko'rsatkichlar (darajaga oid ko'rsatkichlarning tarkibiy qismlari);
- dinamik (darajaga oid ko'rsatkichlarning o'zgarishini tavsiflaydigan, nisbiy) ko'rsatkichlar sifatida hisoblab chiqilishi mumkin.

Nisbiy turmush darajasini quyidagi uch jihat bo'yicha aniqlash mumkin:

- a) uni avvalgi yillardagi turmush darajasi bilan taqqoslash;
- b) bir mintaqadagi turmush darajasini boshqa mintaqalardagi (mamlakatlardagi) turmush darajasi bilan taqqoslash;
- v) amaldagi turmush darajasini kishilarning minimal va oqilona talablarini ifodalovchi ehtiyojlarning rivojlanganlik darajasi bilan taqqoslash orqali.

48-masala

Oila besh kishidan iborat: yeri-qurilishda kranchi-mashinist, xotin-shahar kutubxonasida kutubxonachi, ikkita bolasi maktabgacha yoshda, ularning qari onasi-pensionyer. Oila daromadi (to'lov va soliqlar chiqarib tashlangandan so'ng) yerining ish haqi oyiga 680000 so'm va xotinniki-420000 so'm, onasining pensiyasi-300000 so'm

Kishi boshiga to‘g‘ri keladigan oylik daromadlarni aniqlash zarur va oila farovonligi darajasi haqida xulosa chiqrish kerak.

49-masala

Oila besh kishidan iborat: yeri-tijorat bankida yurist-maslahati, xotini uy bekasi, qizi-talaba, otasi-harbiy pensionyer, onasi 2- guruh nogironi. Oilaningga umumiylar daromadi 1 oyga yerining oylik maoshdan –360000 so‘m, qizining stipendiyasi – 200000 so‘m, otasining pensiyasi-250000, onasining pensiyasi-300000 so‘m, hamda ota-onalari kvartirasini ijaraga byerishdan tushadigan – oyiga 260000 so‘mlik daromaddan iborat.

Kishi boshiga to‘g‘ri keladigan oylik daromadni hisoblang va oiladagi farovonlik darajasi haqida xulosangizni byering.

50-masala

Samarali faoliyat yuritayotgan tadbirkor oilasi to‘rt kishidan iborat (yeri, xotini, 2ta yuqori sinf o‘quvchi-farzandlari). Oilaningga oylik o‘rtacha daromadi 280 ming so‘mdan iborat bo‘lib, yerining tadbirkorlik faoliyati daromadlaridan (140 ming so‘m) tashkil topgan.

Kishi boshiga to‘g‘ri keladigan oylik oila daromadini hisbolang va Oilaningga farovonligi haqida xulosa qiling.

51-masala

Besh kishidan iborat yaxshi ta’minlangan oila (yeri-tijorat bankida yurist-maslahatchi, xotini-uy bekasi, qizi-talaba, otasi-harbiy pensionyer, onasi 2-guruh nogironi) yillik jami pul daromadlari 1200,6 ming so‘mga ega. Oila budgetining

daromad qismi yerining maoshi (530 ming so‘m), qizining stipendiyasi (240 ming so‘mi) ota-onalarining pensiyasi (450 ming so‘m) dan tashkil topgan.

Harajatlar qismi esa quyidagilardan iborat: yerining yillik daromad solig‘i va badallari – 100 ming so‘m, uy-joy va ijara daromadidan soliqlar-48 ming so‘m har oylik oziq-ovqat harajatlari – 142200 so‘m, nooziq-ovqat tovarlar haridi –225000 so‘m ketadi.

Oila yillik harajatlarda soliq va badallarga ovqat tovarlar haridiga, turli xizmatlarga va jamg‘armalarga ketadigan sarflarning ulushini foizda hisoblang.

13. GENDYER TENGSIZLIK VA INSON TARAQQIYOTI

Gendyer muammosi yerkak va ayolning jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeい qanday bo‘lishi kerakligini taxlil qilibgina qolmay, balki jamiyat rivoji va taraqqiyoti ilan bog‘liq masalalar qay yo‘sinda amalga oshirilayotganligi kuzatadi. Bu o‘zaro munosabatlar jamiyatimiz rivojida va mamlakat taraqqiyotining muhim bosqichlarida katta axamiyatga ega.

Gendyer tengligi haqida ko‘p extirosli so‘zlarni gapirish mumkin. Chunki bugun gendyer muammosi va ma’naviyatini yuksaltirish, o‘zlikni anglash va asrash , inson xaq-xuquqlarini paymol etmaslik singari masalalalarni ham o‘zida ifodalashi bilan haraktyerlidir. Shuning uchun gendyer munosabatlarini o‘rganish bizning mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Gendyer tengsizlik indeksi (GTI)					
O‘lchov-lar	Salomatlik	Huquq va imkoniyatlarni kengaytirish		Jamiyat hayotida ishtirok etish yoki ijtimoiy izolyasiya	
Ko‘rstkich-lar	Onalar o‘limi indeksi	Kamida o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan ayol va yerkak aholi	Ayollar va yerkaklarning parlamentda egallagan joylari ulushi	Ayol va yerkak aholining iqtisodiy faoliy ko‘rsatkichlari	
	O‘smirlarda tug‘ilish indeksi				
Ko‘rstkich-lar indekslari	Ayollarning reproduktiv salomatligi indeksi	Ayollarning huquq va imkoniyatlarni kengaytirish indeksi	Ayollarning iqtisodiy faoliy indeksi	Yerkaklarning huquq va imkoniyatlarni kengaytirish indeksi	Yerkaklarning iqtisodiy faoliy indeksi
	Ayollarning gendyer indeksi			Yerkaklarning gendyer indeksi	

Talabalarning mustaqil ishlashi uchun topshiriq

O‘zbekiston mehnat bozorida gendyer taksimlanishi tahlil qiling va xulosalar keltiring.

13.1- jadval

Sektor	Ayollar,%	Yerkaklar ,%
Sanoat	42	58
O‘rmon xo‘jaligi	51,1	48,9
Qurilish	12,8	87,2
Transport va aloqa	17,3	82,7
Savdo	53,7	46,3
Sog‘lijni saqlash, sport	78,3	21,7
Ta’lim, madaniyat, fan	68,7	31,3
Moliya, kredit	45,5	54,5

14. INSON TARAQQIYOTI KONTEKSTIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMI

Bozor munosabatlariga o’tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy ta’minlashning xususiyatlari

Ijtimoiy himoya hamma davr, xalqlar va davlatlar uchun umumiydir, chunki bu vazifa har bir davlatning asosiy maqsadlaridan biri bo’lgan.

Ma'lumki, davlat pensiya va nafaqa ta'minoti, majburiy davlat ijtimoiy sug’urta badallari hisobidan aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga pulli to’lovlar

vositasida ko'rsatiladigan yordamdir. Bu yordam ularning zarur turmush darajasini kafolatlaydi.

Bu to'lovlar ish byeruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari, davlat tomonidan ajratiladigan dotatsiyalar hisobiga moliyalanadi.

Bulardan tashqari, jamoa ijtimoiy sug'urtasi va shaxsiy sug'urta tizimlari ham mavjud.

Jumladan, jamoa sug'urtasi, majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bunda ish byeruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari to'lov manbalari bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsiy sug'urta esa ixtiyoriy ravishda, fuqarolarning sug'urta badallari hisobiga amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan tizimlar aholining farovonligini oshirishdagi muhim elementlardan hisoblanadi

Dastlabki tizim - birdamlik, jamoa sug'urta tizimi -subsidiyalash, shaxsiy sug'urta tizimi esa mutanosiblik tamoyillariga asoslangandir.

Birdamlik tamoyili yordamni muxtojlik darjasini qarab, fuqaro to'lagan soliqlar va sug'urta badallari miqdorini hisobga olmasdan taqsimlanishini ko'zda tutadi. Subsidiyalash tamoyilida esa muxtojlik darjasiga qarab, ammo badallar miqdori va mos ravishda to'lovlar miqdorini hisobga olgan holda yordam ko'rsatiladi. Mutanosiblik tamoyili to'langan sug'urta badallariga mos (proportsional) miqdorda yordam kursatishni ko'zda tutadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyoti tizimi aholining kam ta'minlangan, nogiron, qarib qolganlar turmush darajasini yaxshilash va pasayishini oldini olish borasida doimiy ravishda ish olib borish va sug'urta tizimlarini rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Shu bilan birga, aholi salmog'ini qarishi bilan belgilanayotgan demografik vaziyatning o'zgarishi ham (BMTning tahliliga ko'ra, 2040 yillarga borib pensionyerlar salmog'i mehnatga layoqatli aholi salmog'iga nisbatan ikki barobar ortar ekan) hozirgi vaqtida ijtimoiy himoya va pensiya ta'minotiga va ularni isloh qilishga jahon ham jamiyatni tomonidan bo'layotgan qiziqishning yanada oshishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, barcha rivojlangan davlatlar, ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tganiga nisbatan ko'p vaqt bo'limgan sobiq ittifoq davlatlarida ijtimoiy ta'minot shakllari va turlari, ko'rsatilayotgan yordamning prinsiplarini qayta ko'rib chiqish va uning shakllanish yo'nalishlarini rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada Respublikamizda:

Fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan xuquqlari Konstitutsiyamiz bilan kafolatlanib, bu masala uning 39- moddasida aks yettirildi;

1991 yil 18 noyabrda, «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi;

- 1993 yil 3 sentyabrda «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi;

2004 yilda «Fuqarolarning jamg'arilib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi;

Ko'plab ijtimoiy masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Aholining ijtimoiy muxofazasini kuchaytirish va moddiy farovonligini oshirish maqsadida sobiq ittifoq davlatlarida va chet ellarda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ushbu kitobda qisqa ma'lumotlarga to'xtalib o'tiladi.

52-masala

2010 yil 15 martda yoshga doir pensiya oluvchi ishlar maydigan pensionyer ishga qabul qilindi (fuqarolik-huquqiy shartnomasini tuzdi). Har oylik pensiya miqdori 180800 so‘m 00 tiyinni tashkil qiladi. 2010 yil 1 martdan 14 martgacha bo‘lgan davr uchun pensiya 100 foiz miqdorda ($180800 : 31 \times 14 = 81651$ so‘m 61 tiyin), 15 martdan 31 martgacha bo‘lgan davr uchun 50 foiz miqdorida ($180800 : 31 \times 17/2 = 49574$ so‘m 61 tiyin) to‘lanadi. 2010 yil mart oyi uchun pensiya to‘lovi miqdori 131225 so‘m 80 tiyinni (81651 so‘m 61 tiyin + 49574 so‘m 19 tiyin) tashkil qiladi;

Masalan, yerkak kishi 2011 yil 12 aprelda 60 yoshga to‘lgach, pensiya tayinlash uchun murojat kildi va uning oxirgi 10 yil mobaynidagi mehnat faoliyatining 5 yillik davri uchun 2006 yil may -011 yil aprel oylari tanlandi.

Pensiya tayinlanishidan oldingi 12 oy uchun eng kam oylik ish xaqi miqdori aniqlanadi. Bu fuqaroning o‘rtacha eng kam oylik ish xaqi miqdori = $(37680 \text{ sum} \times 12)$ = 45215 sum ($(2010\text{-yil maydan} - \text{iyulgacha eng kam oylik ish xaqi miqdori}) \times 4$) + 49735 sum ($(2010\text{-yil avgustdan-noyabrgacha eng kam oylik ish xaqi miqdori}) \times 5$) = $45214,58$ sum.

Ish xaqi to‘g‘risidagi (ma’lumot nomalari bo‘yicha) ma’lumotlar asosida ish xaqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini va har bir oy uchun hisoblab chiqilgan xaqiyqiy ish xaqini aniqlanadi. Buning uchun fuqoronning xaqikiy olgan ish xaqilarini oyma-oy o‘sha davrlarda belgilangan eng kam oylik ish xaqi miqdoriga bo‘lish orqali ish xaqarning yakka tartibdagi koeffitsientini aniqlab, ushbu koeffitsientlarni o‘rtacha eng kam oylik ish xaqi miqdoriga ko‘paytirish orqali fuqoronning qayta hisoblab chiqilgan xaqiykiy ish xaqi hisoblab chiqiladi hamda ushbu chiqqan ish xaqi miqdorlarini qo‘sib jamlanadi.

Jamlangan qayta hisoblab chiqilgan xaqiyqiy ish xaqlari miqdorini 60 ga bo‘lish orqali pensiya hisoblash uchun o‘rtacha oylik ish xaqi aniqlanadi.

53-masala

To‘liqsiz oy uchun pensiyani to‘lashda (ishga qabul qilingan (fuqarolik-huquqiy Shartnomaga tuzilgan) yoki mehnat Shartnomasi (fuqarolik-huquqiy shartnomasi) bekor qilingan bo‘lsa) to‘lanadigan pensiya miqdori quyidagicha aniqlanadi:

1 oyida ham eng kam ish haqi darajasi va Ravshanning oyligi 33-misol Shartidagidek bo‘lgan bo‘lsa, u holda iyul oyidagi soliq

miqdori qancha bo‘ladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти ва социологияси. Дарслик. - Т.: МЕННАТ, 2012. - 763 бет.
2. Абдурахмонов Қ.Х. “Инсон тараққиёти” (Дарслик) Т.: -“Fan va texnologiya” 2013 -475 б.
3. Буланов И.С, Волгин Р.А. Рынок труда. Учебник. – М.: Экзамен, 2007. – 479 стр.
4. Кибанов А.Я. Экономика и социология труда. Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2010. – 548 стр..
5. Ақбаров А.М., Ирматова А.Б. «Мехнат иқтисодиёти» фани бүйича таълим технологияси «Иқтисодий таълимдаги ўқитиш технологияси» сериясидан. -Т.: ТДИУ, 2010 - 411 б.
6. Кибанов А.Я. Управление трудовыми ресурсами. Учебное пособие. – М: "Инфра-М", 2010 - 284 стр.

Mundarija

1. Mehnat jarayonlarini tashkil etish.....	3
2. Bozor xo‘jaligi tizimida mehnat bozori.....	6
3. mehnat resurslari va mehnat saloxiyati.....	11
4. Aholini ish bilan bandligining shakllanishi va moxiyati.....	17
5. Ishsizlik: sabablari , xususiyatlari va kamaytirish yo‘llari.....	20
6. mehnat unumдорлиги: tushunchasi, omillari, zaxiralari.....	23
7. Ish xaqini tashkil etish va uni islox qilish.....	27
8. Inson taraqqiyoti konsepsiysi. Inson taraqqiyoti indeksi va uni o‘lchash usullari.....	32
9. Mingyllik deklaratsiyasi va mingyllik rivojlanish maqsadlari.....	37
10. Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotidagi roli.....	42
11. Ta’lim va inson taraqqiyoti.....	45
12. Turmush, tengsizlik darajasi va inson taraqqiyoti.....	49
13. Gendyer tengsizlik va inson taraqqiyoti.....	50
14. Inson taraqqiyoti kontekstida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi.....	52
Foydalanilgan adabiyotlar.....	58
Ilovalar	59

Muxarir: Dehqonova SH.

Илова 1

Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 12 декабрдаги 350 – сонли қарорига асосан кам таъминланган оиласарга ижтимоий нафақалар ва моддий ёрдамни тайинлаш ва тўлаш тартибига ўзгаришлар киритилади.

Вояга етмаган болалари булга оиласарга нафака тайинлашда хисобга олинадиган болаларнинг энг катта ёши 14 ёшгача пасайтирилди. Бундан олдин нафака 16 ёшгача пасайтирилди. (18 ёшгача булган болаларга умумтаълим мактаблари, академик лицейлар ва касб-хунар коллежларида укиши шарти билан) булган уз фарзандларига эга, фарзанд килиб олган ва васийлик остига олган оиласарга тайинланиб, туланарди.

Бола 2 ёшга тўлгунга қадар уни парвариш қилиш учун оналарга тўланадиган нафақалар, кам таъминланган оиласарга моддий ёрдамнинг амалдаги миқдори ва муддати сақланиб қолинди.

Шунингдек, янги йилдан бошлаб нафакалар ва моддий ёрдамнинг барча турлари учун оила мухтожлигини аниқлашнинг ягона мезони жорий этилади хамда ижтимоий нафақалар ва кам таъминланган оиласарга моддий ёрдамни тайинлашда жами даромадни хисоблаб чикиш тартиби соддалаштирилади.

Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги Қоракалпагистон Республикаси Вазирлар Кенгashi, вилоятлар хокимлклари билан биргалиқда бандликни таъминлаш ва иш ўринлари ташкил этишининг худудий дастурларни амалга ошириш доирасида, энг аввало, қишлоқ жойларнинг ёш оиласаридаги шахсларни ишга жойлаштиришга алоҳида эътибор каратади.

«Махалла» хайрия жамоат фонди Молия вазирлиги билан биргалиқда 2013 йилнинг биринчи чораги мобайнида жойларда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ходимларини оиласарни ижтимоий қўллаб – қувватлаш ва қўллаб қувватлашга мухтож бўлган оиласарни аниқлаш масалалари буйича ўқитиш курслари ўтказилишини ташкил этади.

2013 йил 1 январдан бошлаб вояга етмаган болалари бор оиласарга ойлик нафака миқдори куйидагича ўзгарди. Оиласар:	Ойлик нафака миқдори энг кам иш хакига нибатан фоизда	
	2013 йил 1 январдан	2013 йил 1 январгача
Бир фарзанди бор	50%	50%
Икки фарзанди бор	80%	100%
Учта ва ундан ортик фарзанди бор	120%	140%

Илова 2

Ишловчи пенсионерларга пенсия тўлаш тартиби тўғрисидаги

НИЗОМ

I. Умумий қоидалар

1. Мазкур Низом Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги **Қонуни** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 9-сон, 338-модда), Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1995 йил 20 ноябрдаги **ПФ-1289-сон** «Ишлаётган пенсионерларга пенсия тўлаш тўғрисида»ги (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 10-11-сон, 239-модда), 1998 йил 23 апрелдаги **ПФ-1990-сон** «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларини қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 4-сон, 65-модда), 2004 йил 7 декабрдаги **ПФ-3521-сон** «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчи лавозимларида ишловчи аёлларни ижтимоий муҳофаза қилишни кучайтириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2004 й., 48-49-сон, 493-модда), 2009 йил 30 декабрдаги **ПФ-4161-сон** «Фуқароларнинг пенсия

таъминоти тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2009 й., 52-сон, 559-модда) фармонларига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 30 декабрдаги ПҚ-1252-сон «Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг ташкилий тузилмасини шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2009 й., 52-сон, 563-модда) қарорига мувофиқ Ўзбекистон Республикасида ишловчи пенсионерларга пенсия тўлаш тартибини белгилайди.

2. Қуйидаги тоифадаги ишловчи пенсионерларга пенсиялар тўлиқ миқдорда (100 фоиз) тўланади:

а) уруш ногиронлари ва қатнашчиларига, шунингдек уларга тенглаштирилган шахсларга. Уруш ногиронлари ва қатнашчиларига тенглаштирилган шахслар рўйхати Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 8 сентябрдаги 252-сон (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2011 й., 37-сон, 377-модда) қарори билан тасдиқланган Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги низомнинг 1 ва 2-иловаларида белгилаб берилган;

(2-банднинг «а» кичик банди Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Давлат божхона қўмитасининг 2012 йил 31 августдаги 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-сонли қарори(рўйхат рақами 2222-1, 03.10.2012 й.) таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2012 й., 40-сон, 472-модда)

б) Иккинчи жаҳон уруши йилларида ҳарбий хизматни ўтаган ёки фронт орқасида ишлаган шахслар;

в) I ва II гуруҳ ногиронлари;

г) Чернобиль ҳалокатидан зиён кўрган фуқаролар. Чернобиль ҳалокатидан зиён кўрган фуқаролар доираси Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши раёсати ва Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги

Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 6 апрелдаги 170-сонли «Чернобиль ҳалокатидан зиён кўрган Ўзбекистон Республикасида истиқомат қилувчи фуқароларни ижтимоий ҳимоялаш ҳақида»ги **карорида** белгиланган.

- д) фуқаролар йиғинлари ва маҳаллаларнинг раисларига;
- е) фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия бўйича маслаҳатчи лавозимларида ишловчи пенсионер аёлларга — ёшга доир пенсияни олганда.

Қолган барча ишловчи пенсионерларга уларга тайинланган пенсиянинг 50 фоиз миқдорида пенсиялар тўланади.

П. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлимларида рўйхатда турувчи ишловчи пенсионерларга пенсия тўлаш тартиби

3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлимларида (кейинги ўринларда — Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлими) рўйхатда турувчи ҳамда ташкилотларда ишловчи пенсионерларга пенсиялар иш жойидан Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси хисобидан амалга оширилади.

4. Ўриндошлиқ асосида ишловчи пенсионерларга, пенсия асосий иш жойидан тўланади.

5. Иш жойидан пенсия тўлови ўтган ой учун ойлик иш ҳақининг иккинчи қисми тўловлари билан бир вақтда амалга оширилади. Пенсиялар алоҳида ведомостлар орқали тўланади.

6. Боқувчисини йўқотганлик пенсиясини ўзига олувчи шахслар ишга қабул қилинганда ёки предмети ишларни бажариш ва хизматлар кўрсатиш бўлган фуқаролик-ҳукуқий тусдаги шартномалар (бундан буён матнда фуқаролик-ҳукуқий шартномалар деб юритилади) тузилганда, уларга пенсия иш жойидан 50 фоиз миқдорида амалга оширилади.

(6-банднинг биринчи хатбоиси Ўзбекистон Республикаси Молия

вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Давлат божхона қўмитасининг 2012 йил 31 августдаги 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-сонлиқарори (рўйхат рақами 2222-1, 03.10.2012 й.) таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2012 й., 40-сон, 472-модда)

Бошқа оила аъзоларига (vasiylikka olinganlariga) боқувчисини йқотганлик пенсияси оловчи ишловчи fuqarolarpaga (vasiylariga) pensiyalar, ularning yashash жойидан тўлиқ miqdorda tulanadi.

7. Xususiy (якка tarbiда) tadbirkorlik bilan shugullanuvchi hamda dehkon xujaliklariida ishlovchi pensionerlarpaga, pensiyalar ularning yashash жойидagi Pensiya жамғarmasining tuman (shaҳar) bولимlari томонидан 50 foiz miqdoriда tulanadi (pensiyalariни tўliq miqdorda olish xукуқiga эга pensionerlardan tashkari).

8. Ishga қабул қилинганда fuqarolik-xукуқий shartnomalar tuzilganда, mehnat shartnomasi ёки fuqarolik-xукуқий shartnomaning muddati va shartlariidan қатъи назар, pensiya tўlovlari kuyidagi xollarda tўliq tўxtatiлади:

а) Ўзбекистон Respublikasi «Fuqarolarning давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги Конунининг 14-моддасига асосан, технологиядаги, ishab чиқариш ва mehnatni tashkil этишдаги ўзгаришлар, xodimlar soni (shatlari) ёки ish xususiyatinining ўзгаришига olib kelgan ishlardan xajminining kisqarganligi ёхуд tashkilotning tugatiliishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bекор қилинганидан keyin muddatidan oldin pensiya tайинланган ihsizlar umumiy belgilangan ёшга (eraklar — 60 ёш, aёllar — 55 ёш) etkuniga қадar ishga қabul қiliнганда (fuqarolik-xукуқий shartnomalar tuzilganда);

б) 1994 йил 1 iyulgacha (яни, Ўзбекистон Respublikasi «Fuqarolarning давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги Конунининг кучга kirgungiha қадar) belgilangan muddat xizmat қilgani учун pensiyalar tайинланган shaxslar, ёшга doir imtiazli ёхуд umumiy tarbiда pensiya olish xукуқiga egaliк

қилишдан олдин ишга қабул қилинганда (фуқаролик-хуқуқий шартномалар тузилганда).

(8-банд Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Давлат божхона қўмитасининг 2012 йил 31 августдаги 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-сонли қарори (рўйхат рақами 2222-1, 03.10.2012 й.) таҳририда — ЎР КХТ, 2012 й., 40-сон, 472-модда)

9. Пенсия тўловининг иш жойи орқали амалга оширилиши учун пенсионернинг яшаш жойидаги Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлимлари томонидан бериладиган Ф-25 (мазкур Низомга [илова](#)) топшириқнома асос бўлиб ҳисобланади.

10. Ф-25 топшириқномаси (кейинги ўринларда — топшириқнома) қатъий ҳисбот варақаси ҳисбланиб, уни рўйхатга олишда пенсионернинг (пенсия ишининг) шахсий ҳисобварақаси рақами кўрсатилади.

11. Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлимлари топшириқномада куйидаги маълумотларни акс эттиради:

- а) вилоят, шаҳар, туман, топшириқномани жўнатувчи Пенсия жамғармаси бўлимининг номи ҳамда ташкилотнинг номи ва манзили;
- б) пенсионернинг фамилияси, исми, отасининг исми ва оладиган пенсия тури;
- в) пенсия миқдори;
- г) иш жойидан пенсия тўловининг амалга оширилиши зарур бўлган санаси.

Топшириқнома Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлим бошлиги ва бош ҳисобчиси имзоси билан тасдиқланиб, маҳсус дафтарда рўйхатдан ўтказилади ва ташкилот вакили ёки пенсионер тасдиги билан берилади.

Топшириқноманинг қолган графалари пенсионер ишлайдиган ташкилотнинг ижтимоий сугурта бўйича комиссияси ва маъмурияти томонидан тўлдирилади.

12. Қайта ҳисоблаш натижасида пенсия миқдори ўзгарганда, Пенсия

жамғармасининг туман (шахар) бўлими топшириқноманинг орқа тарафига янги пенсия миқдори бўйича белги киритади.

13. Пенсиянинг бир туридан бошқа турига ўтишда ҳамда пенсия тўлови шартлари ўзгарганда (масалан, ногиронлик гурухи ўзгариши билан боғлик), ташкилот Пенсия жамғармасининг туман (шахар) бўлимига олдинги топшириқнома учун хабарнома йўлайди. Кўрсатилган хабарнома етиб келгандан сўнг, Пенсия жамғармасининг туман (шахар) бўлими иш жойидан пенсия тўловини амалга оширишга янги топшириқнома тақдим қиласди.

14. Пенсионер билан меҳнат шартномасини ёки фуқаролик-хукуқий шартномасини бекор қилишда ташкилот пенсия тўловини тўхтатади ва Пенсия жамғармасининг туман (шахар) бўлимига қайси даврга пенсия тўлови амалга оширилганлигини кўрсатган ҳолда топшириқномага хабарнома йўллади. Пенсионер қайтадан ишга қабул қилинганда ёхуд фуқаролик-хукуқий шартнома тузилганда янги топшириқнома тақдим қилинади.

(14-банд Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Давлат божхона қўмитасининг 2012 йил 31 августдаги 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-сонли қарори (рўйхат рақами 2222-1, 03.10.2012 й.) таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2012 й., 40-сон, 472-модда)

15. Пенсия жамғармасининг туман (шахар) бўлими пенсионернинг шахсий ҳисоб варақасига янги топшириқнома берилганлиги ва олдинги топшириқномага хабарнома келиб тушганлиги тўғрисида белги киритади.

16. Пенсия жамғармасининг туман (шахар) бўлимига пенсионер яшаш жойидан пенсиясини олганидан сўнг мазкур ойда ишга қабул қилинганлиги (фуқаролик-хукуқий шартнома тузганлиги) маълум бўлган ҳолларда, иш жойидан пенсия тўловини амалга ошириш учун келгуси ойнинг 1-санасидан бошлаб, ундиришга қўйилган ортиқча миқдорини кўрсатган ҳолда, янги топшириқнома ёзилади.

Агар, пенсионернинг ишга қабул қилинганлиги (фуқаролик-хукуқий шартнома тузганлиги) жорий ой учун пенсия тўловини олгунга қадар маълум

бўлса, пенсия Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлими томонидан ишга қабул қилинган кунига қадар тўланади.

(16-банд Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Давлат божхона қўмитасининг 2012 йил 31 августдаги 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-сонли қарори (рўйхат рақами 2222-1, 03.10.2012 й.) таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2012 й., 40-сон, 472-модда)

17. Мехнат шартномаси (фуқаролик-хуқуқий тусдаги шартномаси) бекор қилинганда, пенсионер, яшаш жойидаги Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлимига ишдан бўшаганлик тўғрисидаги буйруқ тартиб рақами ва санасини (фуқаролик-хуқуқий шартномани бекор бўлишининг сабаби) кўрсатган ҳолда топшириқномага хабарномани ҳамда меҳнат шартномасининг бекор бўлганлиги тўғрисидаги буйруқ кўчирмасини (фуқаролик-хуқуқий шартноманинг нусхаси) тақдим этади.

Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлимлари тегишли хужжатларни қабул қиласи ва киравчи хатлар учун ўрнатилган тартибда рўйхатдан ўтказади. Топшириқномага хабарнома ва меҳнат шартномасининг бекор бўлганлиги тўғрисидаги буйруқ кўчирмаси (фуқаролик-хуқуқий шартноманинг нусхаси) пенсия ишига тикилади.

(17-банд Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Давлат божхона қўмитасининг 2012 йил 31 августдаги 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-сонли қарори (рўйхат рақами 2222-1, 03.10.2012 й.) таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2012 й., 40-сон, 472-модда)

18. Ишловчи пенсионерларнинг пенсия тўлови харажатлари Ягона ижтимоий тўловни тақсимлаш, шунингдек харажатларни қоплаш бўйича суммаларни тўланишининг ва юридик шахсларнинг давлат ижтимоий сугуртаси харажатлари бўйича тўловларни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомга (рўйхат рақами 2262, 2011 йил 9 сентябрь) (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2011 йил, 37-сон, 383-модда) 5-

иловасигамувиғиқ ҳисоботида акс эттирилади.

(18-банд Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Давлат божхона қўмитасининг 2012 йил 31 августдаги 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-сонли қарори (рўйхат рақами 2222-1, 03.10.2012 й.) таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2012 й., 40-сон, 472-модда)

19. Ишловчи пенсионерларга пенсия тўловининг ўз вақтида ва тўғри амалга оширилиши ҳамда пенсионернинг ишга қабул қилинганлиги (фуқаролик-хуқуқий шартнома тузилганлиги) ёки меҳнат шартномаси (фуқаролик-хуқуқий шартномаси) бекор қилинганлиги тўғрисидаги маълумотни Пенсия жамғармасининг туман (шаҳар) бўлимларига ўз вақтида ва ишонарли тақдим этилиши бўйича жавобгарлик қонунчиликда ўрнатилган тартибда ташкилот раҳбарлари зиммасига юкланди.

(19-банд Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати ва Давлат божхона қўмитасининг 2012 йил 31 августдаги 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-сонли қарори (рўйхат рақами 2222-1, 03.10.2012 й.) таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2012 й., 40-сон, 472-модда)

20. Маъмурият ва ишловчи пенсионер ўртасидаги пенсия тўловлари билан боғлиқ низоларни ҳал қилиш ижтимоий сугурта комиссияси томонидан амалга оширилади.

III. Ўзбекистон Республикаси мудофаа, ички ишлар, фавқулодда вазиятлар вазирликларида, Миллий хавфсизлик хизматида ва Давлат божхона қўмитасида ҳисобда турувчи ишловчи пенсионерларнинг пенсияларини тўлаш тартиби

21. Ўзбекистон Республикаси мудофаа, фавқулодда вазиятлар вазирликларида ҳамда Миллий хавфсизлик хизматида ҳисобда турувчи ишловчи пенсионерларнинг пенсиялари, пенсионернинг хақиқатда яшаш жойидаги Ўзбекистон Республикаси Халқ банки филиаллари томонидан тўлаб берилади.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигига ҳамда Давлат божхона қўмитасида ҳисобда турувчи ишловчи пенсионерларнинг пенсиялари, пенсионернинг ҳақиқатда яшаш жойидаги ички ишлар ҳамда божхона хизмати органлари томонидан тўлаб берилади.

Пенсиялар республика бюджети маблағлари ҳисобидан тўланади.

22. Боқувчисини йўқотганлик пенсиясини олувчи шахслар ишга қабул қилинган тақдирда пенсия 50 фоиз миқдорда тўланади.

Бошқа оила аъзоларига (vasiylikka olinganlariga) боқувчисини йўқотганлик пенсияси олувчи ишловчи fuqarolargaga (vasiylariga) пенсиялар, уларнинг яшаш жойидан тўлиқ миқдорда тўланади.

23. Якка тартибдаги тадбиркор бўлган ҳамда дехқон хўжаликларида ёки fuqarolik-xukujiy tусдаги шартнома бўйича ишловчи пенсионерлар ўзининг меҳнат фаолияти тўғрисида уларга пенсия тайинлаган идораларга маълум қилишлари шарт.

(23-банд Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Favқulodda vaziyatlар vazirliги, Milliy xavfiszlik xizmati va Davlat bожхona қўmitasinining 2012 йил 31 avgustdagi 66, 30, 10, 227, 98, 01-02/5-27-sonli қарори (rўyhat raқами 2222-1, 03.10.2012 й.) taхriрида — ЎР ҚХТ, 2012 й., 40-сон, 472-modda)

IV. Якуний қоидалар

24. Пенсионер тўлиқ ёки тўлиқсиз иш кунида банд бўлишидан қатъи назар, пенсия 50 фоиз миқдорда тўланади.

25. Ўзбекистон Республикаси ташқарисида ишлаётган пенсионерларга пенсиялар мазкур Низомга асосан ўрнатилган миқдорда уларнинг яшаш жойида тўланиши амалга оширилади.

26. Ишловчи пенсионерларга уларга тайинланган пенсиянинг 50 фоиз миқдорида пенсиялар фақат пенсионер шартнома бўйича ишлаган кунлар учун тўланади. Пенсионер шартнома тузмаган қолган кунларда пенсиялар қонунчиликда ўрнатилган тартибда тўлиқ миқдорда тўланади.

